



SO‘Z CHAMANI 

Shayxzoda
ATOYI

84(502)
Sh 53

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.*
Alisher Navoiy

Shayxzoda ATOYI

16+

Toshkent
«Akademnashr»
2020

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

4

013975/
7

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')5

Sh 18

Sh 18 Shayxzoda Atoyi [Matn]: g'azallar / nashrga tayyorlovchi
M. Kenjabek. - Toshkent : Akademnashr, 2020. - 128 b.

ISBN 978-9943-6359-3-7

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')6

Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi:
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar
murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi
MIRZO KENJABEK

«So'z chamani» turkum kitoblarning navbatdagi risolasi hazrat Shayxzoda Atoyi g'azallaridan tuzildi. Ushbu rango-rang guldasta ham muhtaram she'r muhiblariga sevimli bo'lishiga ishonamiz.

ISBN 978-9943-6359-3-7

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

* * *

To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg'a intiqol topti, Huloguxon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shu'aro paydo bo'ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab' salotine zuhurga keldi: shu'aro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va **Atoyi** va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar. Va forsiy mazkur bo'lg'on shuaro muqobalasida kishi paydo bo'lmadi, bir Mavlono Lutfiydindin o'zgakim...

ALISHER NAVOIY

(«Muhokamat ul-lug'atayn» asaridan)

Mavlono Atoyi – Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit kishi erdi. Turkigo‘y erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok (turkiy xalqlar) orasida ko‘p shuhrat tutti. Bu matla‘ aningdurkim:

*Ul sanamkim suv qirog‘inda paridek o‘lturur,
G‘oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo‘lur.*

Qofiyasida aybg‘inasi bor. Ammo Mavlono ko‘p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyotig‘a muqayyad emas erdi.

Qabri Balx navohisidadur.

ALISHER NAVOIY

(«Majolis un-nafois» asaridan)

«Ismoil ota farzandlaridindur» degan so‘zga izoh: Hazrat Navoiy «Nasoyim ul-mahabbat» («Muhabbat shabadalari») asarida **Ismoil ota Ahmad Yasaviyning inisi Ibrohim otaning o‘g‘li** ekanini aytadilar. Atoyi devonining muqovasida va qo‘lyozmaning oxirida **«Devoni Shayxzoda Atoyi»** deb qayd etilishi ham Atoyini shayxlar oilasidan kelib chiqqan deyishga asos beradi.

Eyki, xo'blar ko'zgusinda o'zin izhor aylagan
Ham o'zi ul ko'zguga boqib meni zor aylagan.

Nargisi ayyorlarda kufr-u iymon ko'rguzub,
Qudrati bir g'unchadin ham xor-u gulzor aylagan.

Turrasi tarrorlar mushkin abiri lutfidin,
Infioli nofayi Chin birla totor aylagan.

Sarvqadlar zulf-u xolin dona-vu dom aylabon,
Oshiqi bechoraning ko'nglin giriftor aylagan.

Husn bog'inda bo'yi shamshodlarning shavqida
Ahli dillar xotirin g'amgin-u g'amxor aylagan.

G'amzasi g'ammozlarning kirpikin nashtar qilib,
Xastayi majruhlar bag'rini afgor aylagan.

Oy yuzluq, Zuhra ko'zluq, zulfi yaldo ko'nglining
Mehrini kam, javrini bisyor-bisyor aylagan.

Biruborikim sanamlar og'zini so'z so'zlatib,
Sun'idin har bir nafasda yo'qtin bor aylagan.

Laylat ul-me'roj qoshinda iki yo kelturub,
«Qoba qavsayn» itti hodidin xabardor aylagan.

Din-u iymonimdin ayirma dami oxir meni,
Ey sanamlar zulfini belimga zunnor aylagan.

Qil Atoyining yuzin¹ oli abo husnidin ol,
Ey Muhammadni iki olamda muxtor aylagan.

* * *

O'lturur erdi meni hijron xayoling bo'lmasa,
Yo umidi davlati vasli visoling bo'lmasa.

Oy-u kun, zarra muoriz bo'lg'ay erdi yuzunga,
Mu'jizi husn-u malohat zulfi xoling bo'lmasa.

Sevmagay erdi kishi olamda sendin o'zgani,
Gar vafo qilmoqta oshiqqa usoling bo'lmasa.

Ey jamoling xisravi sayyora husn aflokida,
Tengridin tun-kun tilarmentim, zavoling bo'lmasa.

Bexabar bo'lsa malak, ko'rgach seni inson bikin,
Ne ajab mahsharda ham so'ruq-savoling bo'lmasa.

Odamiliqdin emaskim, ul paridin ayrilib,
Bu tirikliktin, ko'ngul, gar infioling bo'lmasa.

Qil-u qolingdin, Atoy, ma'rifat tutma umid,
Ul og'iz, beling xayoli birla xoling bo'lmasa.

¹ Qo'lyozmada shuvalib ketgan bu so'zni shakl va ma'nosiga qarab «yuzin» deb o'qidik.

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,
Kishi bilmas anikim, qoldi qanda.

Chu jonimdin aziz jonona sensen,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Mango ul dunyoda jannat ne hojat?
Eshiking tuprog'i basdur kafanda.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bu kun Ya'qubtek bayt ul-hazanda.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.

Tilar el mansabi oliy, valekin
Atoyi sarvi ozodingg'a banda.

Qon bo'ldi ko'ngul firoqi birla,
Kuydi jonim ishtiyoqi birla.

Zulfung cheriki jamol mulkin
Oldi ko'zung ittifoqi birla.

G'uncha sevunub to'nig'a sig'mas,
O'xshatsam o'qung bashoqi birla.

Majlisda chog'irdin el usursa,
Men jomi jamoli soqiy birla.

To'squ tilamakka haddimiz yo'q,
Sog'in bori davr ayog'i birla.

Ishqinda qaro boshim oqardi,
Bir boqmadi ko'z qaroqi birla.

Ko'z o'ynatib uttilar ko'ngulni
Ikki qoshi juft-u toqi birla.

Oshiqqa jafo qiling, valekin
Asru dag'i yo'q, yaroqi birla.

Xo'blardin Atoyi lutf istar,
Xonlarg'a ne ish yasoqi birla?

* * *

Ko'zungtek fitna yo'q davri qamarda,
Labingdek ta'ma yo'q qand-u shakarda.

Yuzingda topdim, har ne tiladim,
Tilaklar tush bo'lur ore saharda.

Xating fikrinda ko'nglumni munajjim
Ko'rar har lahza yuz turluk xatarda.

Topilmas nasli odamdin seningdek
Yuzi oy kun tug'ordin kun botarda.

Beling fikr-u xayolin bog'lamoqda,
Tasavvur qilmas el, illo, kamarda.

Ko'zung ko'nglum olurg'a mayl qilsa,
Turubtur ushmunok jon ham nazarda.

Atoyini o'shal bemor ko'zlar
Tutubturlar davosiz dardisarda.

* * *

Gardundin o'tar nolayi zorim kechalarda,
Bilmas netay ul moh uzorim kechalarda.

Zahra yorilur dardi firoqinda ko'nguldin,
Oheki chekar o'q kabi yorim kechalarda.

Yo'qtur g'am-u ranj-u alam-u qayg'udin o'zga
Hajringda mening hamdam-u yorim kechalarda.

Og'zi damidur shom-u sahar nuql-u sharobim,
La'li g'amidur daf'i xumorim kechalarda.

Hijron cheriki, baski, urur jong'a shabixun,
Dunyoni tutar gard-u g'uborim kechalarda.

Yod aylasam ul sho'xi qaroqchi qaro ko'zni,
Qolmas, netayin, sabr-u qarorim kechalarda.

Zulfi g'amidin o'lsam Atoyi bikin, elga
Bo'lg'usidur²¹ yor mazorim kechalarda.

* * *

Umidi vasldur poband bizga,
Muyassar bo'lmasa harchand bizga.

O'shal yuz-u og'iz bemorliqda
Inoyatlar qilur gulqand bizga.

Unuttirdi Xizr obi hayotin
O'shal yoquti shakkarxand bizga.

Ne qatiq anlim³ borkim, olib jon
Ko'ngulni qilmas ul payvand bizga.

Firoqing dardi olinda ko'rinmas
Xase Alburz-u ham Alvand bizga.

²¹ Qo'lyozmada «bo'lg'usidur». Kotib xato ko'chirgan bo'lishi mumkin. Chunki vazn taqozosiga ko'ra «bo'lg'usidurur» deb o'qish maqsadga muvofiq.

³ Angal – xalal yetkazuvchi, ortiqcha, begona.

Qilur «nur» oyatin zulmat ichinda
Musharrah har dam ul jamband bizga.

Atoyitek sochi devonasi biz
Ki, nosih zoye' etma pand bizga.

Ey begim, valloh, kerakmas tanda jon sizsiz manga,
Ham hayoti Xizr-u umri jovidon sizsiz manga.

El tirik derlar meni, ko'nglumda fikr etsam, vale
Bu tiriklikta bo'lur yuz ming gumon sizsiz manga.

Siz sanamlar xonidursiz, bandangiz bir enchu⁴ qul,
Bo'lmasun ushbu ulusta xonumon sizsiz manga.

Javrungiz mehr-u vafodur, dardingiz ayni davo,
Filmasal gar o'lturursiz, mehribon sizsiz manga.

Vaslingiz umrum gulidur, shavqida men andalib,
Yoz faslinda bo'lur vaqti xazon sizsiz manga.

Men bu yuz mushtoqidurmen, bog'-u bo'ston kim bo'lur?
Bo'lmasun nasrin-u lola arg'uvon sizsiz manga.

Men Atoyimen, Husayniy, husn ichinda sen Hasan,
Karbalodur ravzayi bog'i jinon sizsiz manga.

⁴Enchu – bebizoat, beqadr, arzimas ma'nosida.

Ey sohibi fan, ishva bila noz fanida
G'amzang elidin qolmadi jonim badanida.

Yetmas, men g'amxorg'a juz xori firoqing,
Har necha gul ochilsa visoling chamanida.

Nogah nazarim chohi zanaxdoningg'a tushti,
Bog'landi ko'ngul Yusufi zulfing rasanida.

Ko'yungdur-u⁵, men hojati Firdavs emaskim,
Xushtur kishiga, bo'lsa muqim o'z vatanida.

Dur tishing ila lutf talashqon yozug'indin,
Bishti suvg'a g'avvos oni bahri Adanida.

Xo'blar yig'ilib husn-u malohat mayin ichsa,
Majlis beki sendursen alar anjumanida.

Beshubha, malak qilg'usidur qabrina sajda,
Xoki qadaming bo'lsa Atoyi kafanida.

Hosili umrim tugandi hasrat-u qayg'u bila,
Ro'baro' o'lturmadim ul ko'zlari jodu bila.

Men nechuk tashbih etay ul yuzni oy-u kungakim?
Nisbati yo'qtur tajalli yuzining ko'zgu bila.

⁵ Ko'y – 1) ko'cha, yo'l; 2) qishloq, mahalla, manzil.

Qomating xushtur, vale ikki ko'zumda yaxshiroq
Sarv chun xushroq ko'runur, bo'lsa oqar suv bila.

Ko'zlari ko'nglum olur, xoli qo'yar jonimg'a dog',
Ey musulmonlar, netay ul kofiri jodu bila.

Necha qon yig'lab Atoyi so'zlasa dardi dilin,
O'tkarur ul toshbag'irlik shevachi kulgu bila.

* * *

Ko'zumki sevdi yuzungni chin e'tiqodi bila,
Ko'rar bu mushki Xo'tanni soching savodi bila.

Bo'yungni sarv o'qumoq elga odat o'ldi, vale
Eram niholi ne nisbat, bu devchayi odi bila.

Jamol mulkini olding vafo-u mehring ila
Ki, mulk boqi bo'lur shoh adl-u dodi bila.

Murodim ul ko'zi ayyordurki, bor nazari
Nihoni oshiqi miskini nomurodi bila.

Yozuqsiz o'ldi kamon abro'lar jafosindin,
Iching piyolaye zi hamol Atoyi yodi bila.

* * *

Ne jonsen, ey pari ruxsora mahbub?
Qamuq boshtin-ayoq matbu'-u marg'ub.

Sanga bersun ilohi Nuh umrin,
Manga ham furqatingda sabri Ayyub.

Murodim bo'lmasun hargiz muyassar,
Ko'ngulda sendin o'zga bo'lsa matlub.

Bu g'amkim, bizdadur, bu husn sizda,
Seni Yusuf desunlar, bizni Ya'qub.

Sevar ham javr-u, ham lutfin Atoyi,
Chu xo'blardin nekim kelsa, erur xo'b.

* * *

Ko'zung xayolida yo'qtur balodin o'zga musohib,
Visoling orzusida ham duodin o'zga musohib.

Sabo keturgali zulfung nasimindin bo'ye,
Ko'ngul tilamadi hargiz sabodin o'zga musohib.

Nechaki istadi dard-u g'aming musohibu yore,
Vale topilmadi bu muhtalodin o'zga musohib.

Ko'zung ne turfa otimchi qaroqchidurki, hamesha
Qoshinda yo'qtur aning o'q-u yodin o'zga musohib.

Ko'ngulni tig'i balo birla pora-pora qilayin,
Agar tavaqqu' etar dilrabodin o'zga musohib.

Itina har kecha to subhidam eshikta yoturda,
Qaniki, sarbasar etkay gadodin o'zga musohib.

Atoyi ko'zlariga yor xoki rohing erur,
Ki, ko'zga loyiq emas to'tiyodin o'zga musohib.

* * *

Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do'st,
Shodlig'i ham mehnat-u g'amdur manga, ey do'st.

Lutf-u karamingni sen agar mendin ayosang,
Javr-u sitaming lutf-u karamdur manga, ey do'st.

Diydor ila qoni' emas erdim esa, hajring
Bisyor jafo ayladi, kamdur manga, ey do'st.

Ko'nglum yuzini javr ila chun sendin uyurmen,
Oxir necha bu javr-u sitamdur manga, ey do'st.

Odang'a seni o'xshata bilmonki, parisen,
Nortek yangoqing bog'i Eramdur manga, ey do'st.

Qo'y qissayi Jamshidni, Jomi ilikindin
Gar bo'lsa dame, mulkati jamdur manga, ey do'st.

Og'zingg'a fido jonki, tabassum qilib aytur:
«Har lahza, Atoyi, ne adamdur manga, ey do'st».

Ey mus'hafi husnungg'a menging nuqtasi oyat,
Islom eliga bo'ldi yuzung nuri hidoyat.

Sen hurmusen yo malak, ey turfayi davron?
Ne husnunga bor haddi-vu, ne lutfunga g'oyat.

Gar husn budurkim, sanga bor, kes bu tilimni,
Yusuf so'zidin qilsam agar zarra hikoyat.

Zulfung madididin qiladur jong'a ko'zung qasd,
Chin lashkari kofirg'a qilur, ore, himoyat.

Gar jon-u ravon olami arvohqa chiqsa,
Qilg'ay labing odamg'a tiriklikni kifoyat.

Biz barcha xavosin⁶ bu dam og'zingda ko'rarbiz
Voizniki, Iso damidin qildi rivoyat.

Gar javr et, agar lutf, qilur shukrung Atoyi,
Chun yo'qturur onlingda anga haddi shikoyat.

Har necha bo'lsa yorda kibr-u ano-vu martabat,
Bandadin olida hamin faqr-u niyoz-u maskanat.

Orif esang, o'zunga bil faqr-u fano maqomida
Ahli dil ostonasin toji sarir-u saltanat.

⁶Xavosin – xosiyatlarini, xususiyatlarini, xislatlarini.

Gar sen o'zungni tanisang «man arafah» sulukida,
Mul-k-u malak sanga bo'lur, xesh-u tabor-u mamlakat.

Qahridin ehtiroz etib, tutma ko'ngulni noumid,
Lutfi ziyodadur onung, yetsa zamoni marhamat.

Piri mug'on adoqining to'zini ko'zga surma qil,
Ko'z bu yurishdin ochilur, bil muni ayni maslahat.

Sidqi bila habibni sevsa muhib, bilur yaqin
Borcha jafosini – vafo, jumla zarori – manfaat.

Ikki jahon ibodatidurmu, Atoyi, dunyada
Shohi viloyat olina hamd-u sano-u manqabat?

* * *

Ey musalsal zulfidin jonimda yuz ming pech-pech,
So'rmasang bir dam bu qulni, bori so'rg'il kech-kech.

Bahs etar erdi munajjim sifr og'zing nuqtasin,
Hosili mabhasni so'rdum, ersa aytur hech-hech.

Kulbayi ko'ngul sari kelsa g'aming ta'zim etib,
Derman: «Ey yori qadimiy, xayra maqdam kech-kech!»

Gar tilarsang⁷ husn mulkin olsang ikki dunyada,

Oshiqi tahqiqini taqlidlardin sech-sech.

⁷ Gar tilarsang – agar istasang, agar xohlasang.

Bu Atoyi ertaki muxlis qari quldur sanga,
Ne yigitlikdurki, andin yod etarsen kech-kech.

* * *

O'shal kunkim huvaydo bo'ldi arvoh,
Saroyi «kunt-u kanzan» topti miftoh.

Yoqildi o'rtada mushkoti odam,
Vujudung bo'ldi ul mushkota misboh.

Nubuvvat bobining qufl-u kalidin⁸
Sanga topshurdi oxir damda Fattoh.

To'quz afloktin bir tunda o'ttung,
Zihi sayr-u suluk, ey ruhul arvoh.

Bali, sen «rahmatan lilolamin» sen
Ki, qilding zohir-u botinni isloh.

«Aliyyun bobuho» sen «shahri hikmat»,
Eshikingning gadoyimen, qil ilhoh⁹.

Ki, yetkay ul eshiking kavsarindin
Atoyig'a dami to'lg'anda aqdoh.

⁸ Qufl-u kalidin – qulf-u kalitini.

⁹ Ilhoh qilmoq – qat'iy undamoq, qistamoq; biror ishni ado etishda qattiq turib olmoq.

Ey soching sha'ninda nozil oyati «Hablul-varid»,
Davlati husnung uchun jon dardidur «Hal min mazid».

Novaki g'amzang zireh qildi ko'ngullar javshanin,
Jon qoshing yosina qurbon, ey jamoling mohi iyd.

Dunyoda, bas, darbadarliq birla kezduk, topmaduq
Ganji vaslingg'a muhabbat bobidin o'zga kalid.

Gar qarorsiz ko'zlaring oq uy ichinda o'ynasa,
Men kelib chafdin bubaklaringga dermen did-did.

Pir bo'ldum hasratingda qayg'udin, insofa kel,
Tengriliq yo'qmu, yigitsen, qilma mundoq noumid.

Ey mudarris, men qarodin oqni farq aylamon,
Lavhashalloh Bog'i Zog'on, habbazo Bog'i Safid.

Sevgani usruk ko'zung birla labingni jon ila
Piri mayxona Atoyi olida bo'ldi muriyd.

Dilbaro, la'ling mayidur obi kavsardin murod,
Qomating sarvi dag'i tubiyi navbardin murod.

Bir nazarda g'orat aylar yuz ko'ngulni zulm ila,
Ko'zlaringdur, ey sanam, kuffori Xaybardin murod.

Oh, bir kun bu qaro boshing'a ne kelturgusi
Bu ko'ngulkim, istar ul zulfi muanbardin murod.

Bori xanjar chekmasun nozuk beling, g'amzang yetar,
Gar meni o'lturmak ersa ushbu xanjardin murod.

Tuhmati xushkidurur ummong'akim, dur andadur,
Tishlaring durdonasidur lu'luyi tardin murod.

Men talab ustinda o'lgumdur sitamkashlik bila,
Har nechakim hosil o'lmas sen sitamgardin murod.

Men base miskinmen-u, siz husn ila asru g'ani,
Ayb emas, ko'z tutsa miskinlar tavongardin murod.

Xo'blar mehr-u vafosidurki, hech kim ko'rmadi,
Kimiyyogarlal degan kibriti ahmardin murod.

Nomurode bo'l, Atoyi, dilbarung yo'lindakim,
Dilbar o'qtur oshiqi sodiqqa dilbardin murod.

* * *

Odamni adamdinki, Xudoy ayladi mavjud,
Izhori jamoling edi, bas, g'oyati maqsud.

Og'zingni kalom ahliki ma'dum o'qurlar,
Derlar beling otini ma'dum-u ne mavjud.

Men xastani bir olqish uchun so'rg'oningizdin
Sizga ne ziyon bo'lg'ay, agar bo'lsa mango sud?

O'rtangay edi nori yangog'ing¹⁰, o'tida ko'nglum,
Jon dardina sebi zaqaning bo'lmasa behbud.

Firdavsiyi Tusi¹¹ ne shikoyat qilur erdi,
Gar xatti Ayozi o'lmasa «Shohnoma»yi Mahmud?

Soqiy, ketur ul otashi gulrangki, xushtur,
Mushkin nafasi subh bila zamzamayi ud.

Shohid bila bir bo'lsa Atoyig'a ne ta'na,
Vahdat yo'lida ekti guli shohid-u mashhud.

O'shal soni'ki, sun'idin tajallii jamol aylar,
Yuzung mir'oti husnidin yuz izhori kamol aylar.

Qaro zulfung savodidin rumuzi kufr etib zohir,
Engingni Mustafo nuri, mengingni ham Bilol aylar.

Xalil o'g'li bikin qurbon etarga ishq jonbozin
Jamolingdin qilib bayram, qoshing yosin hilol aylar.

Haqiqatta libosi zohiriyg'a e'tibor o'lsa,
Nega Muxtori Akramning libosin eski shol aylar?

¹⁰ Yangoq, yongoq – yuz, rux, yonoq.

¹¹ Firdavsiyi Tusi – Firdavsiy va Tusi, ulug' shoir va adiblar.

Muhabbat sharbati gar no'sh birla sozvor ersa,
Husayni Karbalog'a ne uchun qonin zilol aylar?

Jam-u Jamshed-u Fag'fur-u Kayukovusnung bojin
G'aniliq qahramonindin ko'zungni poymol aylar.

Atoyi, sen kim-u tavhidi Haq, haddingni bil hayhot
Kim, oning hamd-u shukri aqli kulni gung-u lol aylar.

* * *

Ulki derlar, jumlayi olamda g'olib husn erur,
Muntahoyi vosili matlub-u tolib husn erur.

«Ahsani taqvim» ila «kullun jamilun» sirrini
Anglag'on orifg'a hozir birla g'oyib husn erur.

«Kunt-u kanzan» pardasinda orif-u ma'rufnung
Ramzini izhor qilmoqliqqa tolib husn erur.

Olami aflokda xurshedi olamtobni
Aylagon sulton-u ham shohi kavokib husn erur.

Misr shahrinda Zulayxoni aziz Yusuf uchun,
Xor qilg'on yer tubindin ham chiqorib husn erur.

Qilg'uchi ozadani banda, salotinni gado
Bir nazarda mazhari jumla ajoyib husn erur.

Bu jamolkim Atoyi sizda ko'rdi, ba'dazin
O'zga xo'blar ne degay, ya'niki sohib husn erur.

Yuzungdin ravzayi rizvon bo'lubtur,
Labingdin chashmayi hayvon bo'lubtur.

Jamoling mus'hafining oyatidin
Hadisi Yusufi Kan'on bo'lubtur.

Burun xud bor edi husn-u jamoling,
Valekin emdi sad chandon bo'lubtur.

Azalda jur'aye tommish labingdin,
Bukun oti jahonda jon bo'lubtur.

Xino rangimudur bormoqlaringda
Yo oshiq o'ltururda qon bo'lubtur?

Mudom o'sruk yotur mehrob ichinda,
Magar kofir ko'zung tarxon bo'lubtur?

Qorong'u kechada kish¹² jubba ichra
Yuzung oy-u ko'zung cho'lpon bo'lubtur.

Taolalloh! Zihi shakl-u shamoyil
Ki, olam husnina hayron bo'lubtur.

¹² Kish (kesh) jubba – qora po'stin; qora tusli, qunduzsifat hayvon terisidan bo'lgan jubba va po'stin.

Atoyi mohruxlar¹³ orzusinda
Falaktek asr-u sargardon bo'lubtur.

* * *

O'tarda ko'z uchidinkim biror nazora qilur,
Xirad chiqar yo'lidin, aql-u hush kanora qilur.

Nedin ko'ngulga sevgulukni berdi haddin tosh?
O'shalki, husn eli ko'nglini sangi xora qilur.

Karashmadin chu ko'ngilning yarasina butmas,
Necha yurakni jafo tig'i birla pora qilur.

Ketursa xandayi shiring'a la'li maygunun,
Yuz ilg'i¹⁴¹ shayx, valini sharobxora qilur.

Atoyi sirrini har necha yoshurur eldin,
Qizorta qon yoshi, yuz yerda oshkora qilur.

* * *

Dilbaro, kelgilki, shavqungdin qarorim yo'qturur,
Toqati hajr-u majoli intizorim yo'qturur.

Ey masihim, men zaifi xastadilni bir nafas
So'rmasang, o'lmaktin o'zga kor-u borim yo'qturur.

¹³ Mohruxlar – oy yuzlilar.

¹⁴¹ Ilg'i – yilg'i (yilgi).

Qilcha jonim bor, qilay hinduyi zulfunga fido,
Chun bu savdoda, begim, moli tavorim yo'qturur.

Necha xoki rohdek ko'rsang raqiblar ko'zida,
Haq bilur, bir zarra ko'nglumda g'uborim yo'qturur.

Itlaring chorlar meni ko'rgach, eshikta ayb emas
Kim, ulardin o'zga mushfiq do'stdorim yo'qturur.

El yuzinda boqma deb hardam yuzumga so'ylagil,
Sen bilursen, xud bu ishta ixtiyorim yo'qturur.

O'ldi hajringdin Atoyi, ey jafochi sangdil,
Demading bir kun maning ul xoksorim yo'qturur.

* * *

Yuzung to pardadin zohir bo'lubtur,
Sanamlar husn da'vosin qo'yubtur.

Zihi ishrat saning o'sruk ko'zungga
Ki, gulzor ichra xush majlis tuzubtur.

Shakar og'zing qoshinda la'l konin
Menging hindulari saqlab turubtur.

Taloshmish g'uncha og'zing birla torliq,
Sabo og'zina-og'zina urubtur.

Uta¹⁵ chiqti bag'irdin tiri g'amzang,
Vale paykoni jonda o'lturubtur.

Firoqingning magarkim joni yo'qtur,
Meni sensiz tirik mundoq tutubtur.

Atoyig'a yemak-ichmak kerakmas
Ki, hajring ilkida jondin to'yubtur.

* * *

Ey ko'zi jayron, qaro kirpuklari sayyodlar,
Kofiri zulfung necha qilgay manga bedodlar?

Har zamon g'arqi araqtin ezilurlar chun nabot,
Lablaringning infiolidin base qannodlar.

Har biri turg'on yerinda qoldi hayron bandatek,
Qomatingdin bog' ichinda sarv-u ham shamshodlar.

Qo'pmading noz uyqusindin, ey ko'zi cho'lpon, dame,
Har sahar yetti falakka nola-u faryodlar.

Men netib tarki sharob-u shohid aylaykim, manga
Piri mayxona azaldin qildi bu irshodlar.

¹⁵ Ut – o'tmoq fe'lining o'zagi. Satrning ma'nosi: "G'amzang, ya'ni kiprik suzib boqishing o'qi bag'irdan o'tib chiqdi (teshib o'tdi)". Adabiyotshunos olimlar "uta" so'zidagi o'zak "o't-olov" yoki "o't-alaf" ma'nosida ketmasligi uchun bu so'zni "U" harfi bilan yozishga qaror qilganlar. Bu so'z "Navoiy asarlari lug'ati"da ham shu shaklda kelgan.

Seli ishqing qo'ymadi, hamvor qildi yer bilo,
Sabr ko'yinda nechakim ayladim bunyodlar.

Oraz-u zulfidin o'zga zikr-u fikring yo'qturur,
Ey Atoyi, qayda bordi subh-u shom avrodlar?

* * *

Jon ulvini adamdin chunki hosil qildilar,
Og'zingiz birla vujudimni muqobil qildilar.

Ka'bayi vaslingg'a azm etgan muhib mushtoqlar
To'shayi mehnat bila qat'i manozil qildilar.

Zulfunguz bir torini mashshotangizdin o'g'rilab,
Chin-u Mochin xo'blari bandi hamoyil qildilar.

Ko'zlaring ne turfa sohirlardururkim, tez boqib
Jumla Kashmir elining sehrini botil qildilar.

Ko'z yo'lindin har zamon yuz korvoni g'am kelur,
Husn eli to kulbayi ko'nglumni manzil qildilar.

Qudsilar «Qolu balo»da xasta ko'nglum lavhidin,
Oy yuzungnung mehridin o'zgoni zoyil qildilar.

Ey Atoyi, sajdayi shukr aylagil Yazdonig'a
Kim, seni maqbullar dardig'a qobil qildilar.

Bu husn-u malohatki bizing yorda bordur,
Hoshoki¹⁶, gul-u lola-u gulzorda bordur.

Zulfung ko'ngul olur desam, ey jon, ajab ermas
Kim, yuz ko'ngul oshuftasi har torda bordur.

Har birisi bir dog' qo'yar joni hazing'a,
Har xolki ul oraz-u ruxsorda bordur.

Har ne tilasa ahli nazar husn yuzindin,
Juz¹⁷ mehr-u vafo, barchasi ul yorda bordur.

Ne g'am, agar o'lsa g'am-u hijrondin Atoyi,
Chun mehri oning xotiri afgorda bordur.

Jonimg'a dog' qo'yguchi ul yuzda xoldur,
Andin umidi marham-u dor-u maholdur.

Savsan hikoyat etgali qadding niholini
Sarvi chamang'a bog' ichida infioldur.

¹⁶ Hosho (hosha) – zinhor, aslo; hech ham, hech qachon; Xudo saqlasin!

¹⁷ Juz – boshqa, o'zga, bo'lak. Juz mehr-u vafo – mehr-u vafodan boshqa. Ya'ni: "Mehr-u vafodan boshqa hamma narsa ul yorda bordir".

Har kimki sevsa sen kabi sohibjamolni,
Sohibnazarlar olida sohib kamoldur.

Kel, beniqob chiqqil o'yungdin tom ustina,
Ahli zamona xo'blarini bir uyoldur!

Qo'yg'il, Atoyi, boshni sanamlar ayog'ina,
Emdi chi joyi madrasa-vu qil-u qoldur?

* * *

Jamoling ravzayi bog'i jinondur,
Labing sarchashmayi ruh-u ravondur.

Soching sunbul, yuzung sarvi sanubar,
Ko'zung nargis, yangog'ing arg'uvondur.

Beling, og'zing so'zi har qayda bo'lsa,
Xayoli nozuk-u ramze nihondur.

Ne hojat muncha javr etmak, ravon ol,
Agar maqsud bu bir qilcha jondur.

Necha g'am bo'tasinda sizg'urursen,
Sanga chun naqdim-u qalbim ayondur.

Atoyini qiyos etma o'zungga,
Agar sen o'zga bo'ldung, ul hamondur.

* * *

Xoli mushkinkim, o'shul yuz – mohi tobonindadur,
Rashkdin yuz dog'i hasrat lolaning jonindadur.

Ne balo nozuk yaratmish Olim ul-g'ayb og'zini,
«Kuntu kanzan» ramzi maxfisi aning shonindadur.

Garchi Yusufdek bukun husn-u malohat Misrida,
Mo'jizi Iso, valekin la'li xandonindadur.

Ey musulmonlar, ajab, ayyori kofirdur ko'zi,
G'orati din qilmoq ichra kufri ayonindadur.

G'uncha yanglig' nofayi ohuyi Chin qon bog'ladi,
Topmadi ul bo'yi xushkim, sunbulistonindadur.

Gah qilur javr-u jafo, gah ko'rguzur mehr-u vafo,
Hukm oningdur, harne qilsa, banda farmonindadur.

Yuz Atoyidek gadoyi o'lsa, qaytib boqmag'ay,
Bu dumog'-u kibrkim, ul husn sultonindadur.

* * *

Mushkin xatiki chashmayi hayvon nabotidur,
Parvona jon angaki, tiriklik barotidur.

Ul shahsuvor tirkashining o'qining yungi
Jon qushining tiriklata kesgan qanotidur.

Har kimki ichmadi labi obi hayotidin
Bir mayyitedururkim, oning hayy otidur.

Ko'nglumni o'zbak o'ljasi qildi qiyo boqib,
Bu xon urug'i qaysi ulusning qiyotidur?

Yetmasmu bir Atoyig'a, ey husn ila g'aniy,
Ko'z uchidin nazarki, jamoling zakotidur.

* * *

Tubiyi jannatki, derlar qomat-u bolosidur,
Fitnayi davri qamar ham nargisi shahlosidur.

Bandani hajr ilkidin qilg'on faqir-u zor-u xor,
G'oyati noz-u takabbur birla istig'nosidur.

Ishq mulkinda asir etgan mo'g'ul o'ljosidek
Xasta ko'nglumni xitoyi ko'zlari yag'mosidur.

Rum elinda bir ajab hindu tushubtur, xolikim
Nofayi Chin-u Xo'tan bir kamtarin lolosidur.

Xoki rohidur Atoyi, ko'yidin man' etmangiz,
Chun aning ul bo'ston-u Jannat ul-Ma'vosidur.

Ey begim, ushbu yuz, degul, shams bila qamarmudur?
Ey begim, ushbu so'z, degul, shahd bila shakarmudur?

Ko'z uchidin qiyoy-qiyoy sheva bila boqishlaring
Jon tamurin qiyor uchun tig'mu yo nazarmudur?

Bodi saboki, kelturur jong'a soching nasimini,
Shahri saboning elchisi hudhudi xushxabarmudur?

Zulfi muanbaringkim, ul ko'zdin uchar uzun kecha,
Sarvi sihining ustida zor-u abiri tarmudur?

Zori-yu nola kam qilay, rost ayit, ey posbon,
Itlaringa bu noladin har kecha dardisarmudur?

La'li labing xayolidin bir guzar aylayin dedim,
Joni azizdin vale odamig'a guzarmudur?

So'rsang Atoyi holidin netti, ey podshohi husn,
Lutf-u karam gadoyeg'a Tengri uchun, zararmudur?

Bu elda bordur ikki moh paykar,
Biri qand-u, birisi shahd-u shakkar.

Birining orazi xurshedi tobon,
Birining ko'zlari kuffori Xaybar.

Birining zulf-u xoli dona-vu dom,
Birining qomati sarv-u sanubar.

Birining lablari yoquti serob,
Birining tishlari pokiza gavhar.

Birining g'abg'abidur sebi siymin,
Birining ikki bodomi muqashshar.

Biri sultoni iqlimi malohat,
Biri husn elida Xoqon-u qaysar.

Birining g'amzasi jarrohi ustod,
Birining kirpugi almos xanjar.

Birining ikki qoshidur yangi oy,
Birining tal'atidur iydi akbar.

Biriga choker-u banda Atoyi,
Biriga xodim-u do'iyi¹⁸ kamtar.

* * *

Yuzungni qiblayi ahbob derlar,
Qoshingni qiblayi mehrob derlar.

Labingg'a tashna bo'lg'on ahli dillar,
Yuzungni lolayi serob derlar.

¹⁸ Do'iy – 1) istovchi, talab etuvchi, chaqiruvchi, da'vat etuvchi; 2) duogo'y.

Xat-u xolingnikim, jon nusxasidur,
Xatoyedurki, mushki nob derlar.

Saning siymin taningning hasratinda
Ko'zumning yoshini simob derlar.

Mo'g'ul, Chin ko'zlaring yoshim ko'lini
Yiroqdin ko'rsalar, quvob derlar.

Bu g'amdin xasta bo'ldumkim, xaloyiq,
Labingni sharbati unnob derlar.

Eshikingni ochayin yig'lamoqdin
Ki, yomg'ur yog'sa, fathi bob derlar.

Ko'ngul naqdin olurda g'amzangizni
Ajoyib joduyi qullob derlar.

Atoyini qulum debtur o'shal oy,
Bale, «Ko'ktin inar alqob» derlar.

* * *

Necha jonimg'a sendin dard-u g'amdur?!
Magar mehring jafo, lutfung sitamdur.

Muhiblarg'a jafo qilmoq yozuqsiz,
Muhabbat yo'lida bisyor kamdur.



Manga dushvor erur sensiz tirilmak,
Sanga men bo'lmasam, ey jon, ne g'amdur?!

Necha jonimg'a tegding va'da birla,
Kechar dunyo, vafo qil, dam bu damdur.

Ko'zung, zulfung bila og'zing g'aminda
Vujudim hosilan ayni adamdur.

Gunoh qildimki, hajringda tirildim,
Vale mendin gunah, sendin karamdur.

Atoyi ushbu yo'lda xok bo'lsa,
Murodi xo'blardin bir qadamdur.

* * *

Meni devona qilg'on bir paridur
Ki, inson-u malakning dilbaridur.

Ko'ziga muntazir Zuhra saharlar,
Yuziga subhi sodiq mushtaridur.

Yuzi husn ichra Yusufcha tuman ming,
Vale zulfi Sulaymon lashkaridur.

Ravon bo'lsa tiriltur yuz o'lukni,
Magarkim, qomati jon paykaridur.

Muattar aylagan jonim dimog'in
Xati mushkin-u xoli anbaridur.

Ko'zum yoshini har dam dona-dona
Sochirg'on qandi la'li tishlaridur.

Seni ul sarvi diljo' ko'zga ilmas,
Atoyi necha ushbu javdaridur.

* * *

Ko'zung davri qamar ayyorasidur,
Balo aflokining sayyorasidur.

Agarchi joni shirinimdur og'zing,
Vale shakkar labing jon porasidur.

Ko'zum yoshini har dam aylagan qon
Yuzungnung loladek ruxsorasidur.

Tajalli yuzi pokiza nazarg'a
Zamone oy yuzung nazzorasidur.

Umidim shishasin vasling yo'linda
Ushotqon xira ko'nglung xorasidur.

Gadomen vaslinga, ne chora aylay
Ki, sultonlar bu ish bechorasidur.

Atoyi holidin so'rg'onga ayting:
«Sanamlar ko'yining ovvorasidur».

* * *

Xidmatingda bilmon, ey dildor, taqsirim nedur
Kim, mani qilding munungdek zor, taqsirim nedur?

Ahd-u paymon aylading avval inoyatlar qilib,
Bo'lding oxir bir yo'li bezor, taqsirim nedur?

Sen agar o'zga bo'lubsen, men hamon qulmen, vale
To abad tobug'da xidmatkor, taqsirim nedur?

Bovujudikim, bilursen yori sodiqmen sanga,
Har zamon dersen meni ag'yor, taqsirim nadur?

Yozg'urursenkim, Atoyi, sen fuzul qulsen, vale
Juz umidi davlati diydor, taqsirim nedur?

* * *

Oshiq kishining xotiri g'amnok keraktur,
Jon pirahani dilbar uchun chok keraktur.

Ko'z yuzini yoshim bila yuvay sizni ko'rarda
Kim, pok sanamga nazari pok keraktur.

Qoshing yoyini tur chekayin der kishi mengga¹⁹,
Sar to qadami xoki bikin xok keraktur.

Xolingni qabul ayladi, maqbul ko'zungkim,
Turk onlida bir hinduyi cholok keraktur.

Hajr og'usidin jonig'a yetti ko'ngul oxir,
La'lingdin anga qatrayi taryok keraktur.

Oqil ne bilur surati matbu'yinguz, onin
Bu ma'nig'a bir o'zgacha idrok keraktur.

G'am bahrina cho'm, qa'rina yet durtek, Atoyi,
Daryo yuzina chun xas-u xoshok keraktur.

* * *

Dilbar firoqi garchi azobi alim erur,
Vasli umidi jannati noz-u naim erur.

Yuzi jamoli mus'hafidur, anli fotiha,
Qaddi-yu zulfi, og'zi, alif, lom-u mim erur.

Qilmas taxayyul ul bel-u qomattin o'zgani,
Har kimki zehni nozik-u tab'i salim erur.

Hinduyi muqbildurur ul ko'zi qoshinda xol
Kim, podshohi Rum-u Xitog'a nadim erur.

¹⁹ Meng – xol.

Inson ne bilsun og'zinikim, ilmi g'aybda
Kimdurki, g'ayri Tengri taolo alim erur.

Ko'rgach raqib yuzini boshlang «auz»kim,
Xo'blarni ozg'urur Shaytoni rajim erur.

Soldi quloq Atoyi gadoning so'zina yor,
Chun podshohi loyiqi durri yatim erur.

* * *

Seni bir qomati shamshod o'qurlar,
G'aming birla ko'ngulni shod o'qurlar.

Meni ruxsori zulfung zikr-u fikri,
Xaloyiq subh-u shom avrod o'qurlar.

Ko'ngullar qushlarin sayd etmak ichra
Ko'zung shahbozini sayyod o'qurlar.

Muhabbat shar'ida xo'blar qavlini
Niholi sarvtek ozod o'qurlar.

Nasime yor kuyindin topilsa,
Sulaymon mulkini barbod o'qurlar.

Dame mahbubsiz oshiq hayotin,
Agar Xizr ersa bebunyod o'qurlar.

Atoyini gadolar ichra mazlum,
Seni shohanshahi bedod o'qurlar.

* * *

So'zlasa og'zindin shakar ko'runur,
Sadafi la'lidin guhar ko'runur.

Toleyimni yuzi bila ko'rsam,
Ko'z-u qoshinda yuz nazar ko'runur.

Yangi oy qoshlari xijolatidin
Oylarda biror-biror ko'runur.

Belini har nechaki sinchilasam,
Ko'zlarimga hamin kamar ko'runur.

Yuzi qoshinda tong emas, to'lun oy
Agar istorayi sahar ko'runur.

Manfaatdur mango sanam dardi,
Agar el qoshida zarar ko'runur.

Bu Atoyi ko'zung xayolinda
Doimo mast-u bexabar ko'rinur.

* * *

Yangog'ung ravzanung jannat gulidur,
Bo'yung Tubi, labing Kavsar yelidur.

Ko'zung nargis, yuzung nasrin-u zulfung
Gulistoni Eramning sunbulidur.

Azaldin to abad jon andalibi,
Jamoling gulshanining bulbulidur.

Sabo Dovudi zulfungdin o'tarda
Sulaymon lashkarining g'ulg'ulidur.

Atoyini agar olamg'a sotsang,
Sot, ey zohidki, ul xo'blar qulidur.

* * *

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozuklugindin suv bila yutsa bo'lur.

To magarkim salsabil obina javloni qila
Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur.

Ul ilikkim suvdin oriqtur, yuvmas oni suda,
Balki, suvni pok bo'lsun deb iliki²⁰ birla yur²¹.

Emdi bildim, rost ermish, balki ko'rdum ko'z bila,
Ulki derlar suv qizi, gah-gah ko'zga ko'runur.

²⁰ Ilik – qo'l.

²¹ Yur – yuvar. (Bayt ma'nosi: "O'zi suvdan ham pokroq bo'lgan qo'lini suvda yuvmaydi, balki suvni pok bo'lsin deb qo'li bilan yuvadi".)

Qoshlaring yosin Atoyi ko'rgali husn ichra toq
Subhidam mehroblarda surayi «Yosin» o'qur.

* * *

Soching yaldo tuni, anling sahardur,
Ko'zung Zuhra, yuzung shams-u qamardur.

Parisen, husn-u lutf ichra malak ham,
Xatodurkim, seni derlar bashardur.

Agarchi kuydi jon ishqing o'tinda,
Ko'ngul ahvoli ham andin batardur.

Qoshing gar jon tilar, ko'z birla aytay,
Ko'zung ko'nglum olur ush darnazardur.

O'shal gulgun qochar ustinda xokiy,
Ajab hinduyi jon olib qochardur.

Uzundur qissayi zulfung, valekin
Chu so'z og'zingg'a yetti muxtasardur.

Atoyining qabul et qilcha jonin,
Agarchi bir muhaqqar mohazardur.

* * *

Seni husn ichra oydin pok derlar,
Meni mehring yo'linda xok derlar.

Munajjimlar ko'rub shirin yuzungni,
Sharafdin Xusravi aflok derlar.

Suman pirohaningdin fashk eltib,
Qilur gultek yaqosin chok derlar.

Ushal turkona ko'zlar qullug'inda
Menging hindularin cholok derlar.

Soching zanjirini devonadin so'r
Ki, qilmish aql ani idrok derlar.

Agar bo'lsa visolingdin umide,
Firoqing zahrini taryok derlar.

* * *

Marhabo ul jonkim, aning sen bikin jononi bor,
Soyayi sarvi qadingdin umri jovidoni bor.

Men emasmen yolg'uzun vola ko'zung fattonina,
Go'shalarda yuz meningdek vola-vu hayroni bor.

Otashin la'lingni ko'nglum sevganindin yozg'urub,
Necha kuydurdung meni, oxir kishini joni bor.

Ne ajab, gar bir kun ul tutsa o'zin ko'ktin aziz
Kim, saningtek andin ortuq ko'zlari cho'lponi bor.

Hech kofar kufrini jam etmadi iymon ila,
Turfa kofardur ko'zungkim, kufr ila iymoni bor.

Zulm ila hosho buza olg'ay ko'ngul shahrin raqib,
Xossa ul shahrikim, oning sen bikin sultoni bor.

Garchi yo'q so'zdur Atoyi shakkar og'zing fikrida,
Sorig' oltuntek yuzinda yuz duri g'altoni bor.

* * *

Yoz faslidur, vale men yorsiz,
Andalibi zormen gulzorsiz.

Ko'rmaduk gesularing zanjiridin
Halqayi zuhhodni «zunnor»siz²²¹.

Sarv o'tkanma qadin, beyor yuzi,
Bir yag'ochsen, sheva-vu raftorsiz.

Sehr ilmin dars aytur ko'zlaring
Sohiri Kashmirg'a guftorsiz.

Ahli taqvo ko'rmayin usruk ko'zin,
Ayb emas, gar bo'lsangiz hushyorsiz.

²²¹ Qo'lyozmadan bu so'zni aniq o'qib bo'lmadi, ehtimol, «zunnor-siz» deb yozilgandir.

Ishk istig'nosidurkim, bo'lmadi
Yor beag'yor-u gul ham xorsiz.

Gar Atoyi o'lsa sizga qul – ne kam?
Ey begim, boqiy bo'lung bisyor siz.

* * *

Oldi ko'nglumni maning bir dilrabo, rahm aylamas,
Domi ishq ilginda qildi muftalo, rahm aylamas.

Kofari Xaybar maning holimni ko'rsa rahm etar,
Ey musulmonlar, netay, ul bevafo rahm aylamas.

Gul yuzi shavqinda bag'rim g'unchadek qon bog'ladi,
Sunbulindin bir nasime ham sabo rahm aylamas.

Yer chun faryodinga yetmas, tahammul qil, ko'ngul,
Dodni kimdin tilarsen, podsho rahm aylamas.

Garchi Yusuftek bo'lubtur husn Misrinda aziz,
Piri Kan'onmen, ko'zumga to'tiyo rahm aylamas.

Ohlarkim, san urarsen har sahar ey bodano'sh,
Tengri rahm etkay anga, gar porso rahm aylamas.

...nogah o'lub tobtig, Atoyi ...²³¹

Ko'rmaduk olamda sentek jonig'o rahm aylamas.

²³¹ Qo'lyozmadan shuvalib ketgan bu misrani aniq o'qiyolmadik.

* * *

Ey azaldin dardi ishqing birla jonim hamnafas,
Yo'q visoling davlatidin o'zga ko'nglumda havas.

Ko'zlaring zulfing kechasinda ko'ngullarni tutar,
Bu ne ishturkim, qo'yubsen elda o'g'rini jasas.

Jomayi xoni Xalil qudsi aro ko'rmayturur,
Xatti sabzing qoshida xoling bikin rangin adas.

Biz firoqing birla soz ettuk, raqibing vasl ila,
O'tga parvona kerak, ore asal yerga magas.

Necha, ey jon to'tisi, parvoz etarsen har taraf,
Bizga ul shakkar og'iz fikrinda holimdur qafas.

Mahmili jonon ravon bo'ldi, kel, igrish, ey ko'ngul,
Layli ko'chindin yetar Majnung'a ovozi jaras.

Ey Atoyi, tarki dastor aylagilkim, dunyada
Oshiqi avboshqa toji murassa' durdas.

* * *

Sizingtek hurvash odam topilmas,
Pari yuzluk, Masiho dam topilmas.

Yangog'ingda araqtek²⁴ qatra-qatra,
Guli nasrin uza shabnam topilmas.

Muhib bisyordur sizga, valekin
Bizingtek ahdi mustahkam topilmas.

G'animat tut jamoli husn davrin,
Masaldurkim: «Yana bu dam topilmas».

Vafo qilkim, yigitlik bo'stoni
Hamisha toza-vu xurram topilmas.

Firoqingda ko'ngulga necha boqsam,
Varoyi ranj-u dard-u g'am topilmas.

Atoyi xud qilur vasling tamanno,
Vale miskinga mulki Jam topilmas.

* * *

Manga, sen bo'lmasang, jon hojat ermas,
Bihisht-u hur-u rizvon hojat ermas.

Firoqingda ko'zum yoshi bor erkan,
Bahor-u abri nayson hojat ermas.

Yuzungdin shomlar zulfungni yig'sang,
Furug'i mohi tobon hojat ermas.

²⁴ Araq – ter.

Bo'yung sarv-u, ko'zung nargis, yuzung gul,
Saning qoshingda bo'ston hojat ermas.

Agar gashti labi daryo qilursen,
Ko'zumga kelki, ummon hojat ermas.

Raqib birla musohib qilma bizni,
Quturg'on itga sagbon hojat ermas.

Atoyig'a bo'sag'angda o'run ber,
Saroy-u kox-u ayvon hojat ermas.

* * *

Ul yuzi gulkim, bu qulni – yil kechar – yod aylamas,
Boshtin o'yurub, nega bir yo'li ozod aylamas?

La'lig'a jon berganim g'am tog'inda ne foyda?
Garchi Shirindur, vale parvoyi Farhod aylamas.

Zulfidin bodi sabo mundoqki kasbi ruh etar,
Bu havodinkim tiriklikni barbod aylamas.

Chun yuzung ko'rdi ko'zum, qildi vatanning tarkini,
Gulni chun Navro'z topti, yodi Navshod aylamas.

Haq taolo saqlasun ko'nglin g'am-u tashvishdin,
Xotirimni har nechakim qayg'udin shod aylamas.

Yo'qturur javr-u jafo-vu zulm-u bedod-u sitam
Kim, mening jonimg'a ul huri parizod aylamas.

Yor javridin, Atoyi, yuz o'yurma, sabr qil,
Qaysi dilbardurkim, ul oshiqqa bedod aylamas?

* * *

Jon qolmadi g'amdin, vale jonona inonmas,
Faryodim eshitmas, dag'i afg'ona inonmas.

Ummon tengizi bo'ldi ko'zum yoshi-yu, lekin
Ul husn elida qiymati durdona inonmas.

Har nechaki ko'rguzsa ko'ngul mehr nishonin,
Jon bo'lmag'ucha olida parvona inonmas.

Kofir ko'zi xud rahm qilib bir nazar etmas,
Zulfi dag'i bu holi parishona inonmas.

Dardimni agar hazratida sharh qilurmen,
Bilmasga solib asr-u zarifona inonmas.

Zohid, dema: «Zanjir sochindin ko'ngul uzkim»,
Oqil so'ziga, albata, devona inonmas.

Deding nafase ahdim-u paymonima yetkum
Xo'blardin, Atoyi, vale paymona inonmas.

* * *

Dilbaro la'ling sharobi obi Kavsardin latif,
Qomating naxli dog'i sarvi sanubardin latif.

Safhayi husnuing qoshinda munfa'il avroqi gul,
Nuqtayi xoling abiri mushk-u anbardin latif.

Bir nafas og'zingni keltur so'zga shirinlik bila
Kim, kelur so'z so'zlamaklik shahd-u shakkardin latif.

Sen latofat suyi birla yug'rubtursen tamom,
O'zgalarning husni bo'lsa zeb-u zevardin latif.

Yuz uza solsang tarab mushkin sochingni noz ila,
Gul uza burqa' solursen sunbuli tardin latif.

Istaduk olamda umre, g'amgusore topmaduq,
G'am kuninda yor-u hamdam, jom-u sog'ardin latif.

Hajridin yetsa Atoyi nolasi ko'kka, ne ayb?
Chun topilmas dunyada ul mohpaykardin latif.

* * *

Ey podshohi kishvari husn-u jahon lutf,
Farxunda gul yangoqing ila bo'ston lutf.

Bu husn-u, bu latofat ila qomating bikin,
Sarvi chamanda ko'rmadi bir bog'bon lutf.

Nedin tushar ayog'inga har dam-badam soching?
Gar xulqi xo'b ko'rmasa edi, ey jon, lutf.

Tafsir bo'ldi mus'hafi husn-u jamolinga,
Har kimki qildi dunyoda sharh-u bayon lutf.

O'ldi Atoyi hasrat ila intizordin,
Oxir ne bo'ldi, bo'lmadimu bir zamon lutf?

* * *

Xurshedi xovarida yuzungdek jamol yo'q
Kim, bor anga zavol-u munga hech zavol yo'q.

Nargis ko'zung mengizli Xo'tan lolazorida
O'q yo qoshinda o'ynaguvchi bir g'azol yo'q.

Yuzung qoshinda oy habashiy anli dog'liq,
Qoshing qoshinda to'g'ri tururg'a hilol yo'q.

Jonimni vasl uchun desam ol, ey qaro ko'zum,
Olkim, bu so'zda shu'bada-vu makr-u ol yo'q.

Og'zing, belingni har nechakim fikr aylasam,
Ko'nglumda juz tasavvuri vahm-u xayol yo'q.

Mahbub uchun o'larda manga yo'qturur nazir,
Oshiqni o'ltururda sanga hammisol yo'q.

Qo'yg'il, Atoyi, madrasa-vu xonaqohni,
Ma'nida qavli sodiq-u so'fida hol yo'q.

* * *

Ey do'st, mening dunyoda sentek sevarim yo'q,
Uqboda dag'i ushbu so'zumdin guzarim yo'q.

Vasling ishini har nechakim fikr qilurmen,
Juz soyayi lutf-u karaming choragarim yo'q.

Zulfung-u yuzung hasratida kecha-vu kunduz
Ohimdin u kun hamdami shom-u saharim yo'q.

Ishqing yo'lida har nechakim hajr o'tinda
O'rtansa bag'ir, yonsa yurak ham yonarim yo'q.

Ayb etma, agar qilsa ko'ngul nola-vu zore,
Vasling havasinda chu maning zo'r-u zarim yo'q.

Ey husn-u malohat chamani sahnida tovus,
Ko'zumdin ucharsen, netayin, bol-u parim yo'q.

To sevdum Atoyi kibi mastona ko'zungni,
Aql-u xirad-u boshtin, ayoqtin xabarim yo'q.

* * *

Oh, o'lturdi firoq, ul gul uzorimdin yiroq,
Lola yuzluq, sarv bo'yluq, to'g'ri yorimdin yiroq.

Nola qilsam har zamon, ayb etmang, ey ushshoqkim,
Andalibi benavomen, lolazorimdin yiroq.

Ixtiyor ettim ul oyni ikki dunyodin, vale,
Netayin, soldi falak o'z ixtiyorimdin yiroq.

Sa'y etar zohid meni jannatning eski bog'ina,
Men borurmenmu yuzungdek navbahorimdin yiroq?

Menda ham sabr-u qaror-u aql-u hushe bor edi,
Ne baloliq ishq edikim, soldi yorimdin yiroq.

Gar falak o'ltursa yuz qatla meni, hech bok emas,
Bu o'lumdurkim, o'lodurmen nigorimdin yiroq.

Ketmagay, o'lsam Atoyidek bo'yung sarvi uchun,
To qiyomat soyayi rahmat mazorimdin yiroq.

* * *

Bo'yung sarvi ravondur – jong'a loyiq,
Ne bir bog'-u, ne bir bo'stong'a loyiq.

Ne shabnam donasidur tishlaringim,
Bo'lubtur g'unchayi xandonga loyiq.

Xayolingg'a ko'ngulda jon berurmen,
Aziz tuhfa erur mehmong'a loyiq.

Menu ko'nglumdasen, ey husn ganji,
Bale, har ganj erur vayrong'a loyiq.

Topilmas jumla olamda meningtek
Gadoyi mustahiq ehsong'a loyiq.

Tabib-o, dardi sar berma mangokim,
Mening dardim emas darmong'a loyiq.

Atoyi so'zin, ey sultoni husn, ol
Ki, derlar: «Yaxshi dur sultong'a loyiq».

Yuzung xurshid-u anling subhi sodiq,
Taollalloh! Zihi, xush sun'i Xoliq.

Bu ne ko'zdur, bu ne kirpuk, bu ne qosh
Ki, chiqti din-u iymondin xaloyiq.

Labi Shirin ila Uzro uzoring
Qilur Xusravni chun Farhod-u Vomiq.

Maningdek jumlanı qul qilg'ay erding,
Vafo qilsang, begim, husnungg'a loyiq.

Tilab tobmas edim itgan ko'ngulni,
Sabo zulfungda nogah berdi soliq.

Ajunda istadim bisyor hamdam,
G'amingtek topmadim yori muvofiq.

Nazar qilsun desang ul sarvi ozod,
Atoyi, qil ravon tarki aloyiq.

Saningtek husn ila hur-u pari yo'q,
Labi qand-u asal, beli ari yo'q.

Xo'tan ohusi boqmas boqishingdek,
Yurushungtek yurur kabki dari yo'q.

Diloromeki noz-u sheva bilmas,
Daraxtedurki, hech barg-u bari yo'q.

Tamanno qilmasun ul qosh-u ko'zni,
O'shul boshkim, aning dardi sari yo'q.

Ko'ngulning yuz tuman ming yorasindin
Topilmas yerki g'amzang nashtari yo'q.

Yuzungo o'xshag'ay xud shohi anjum,
Vale zulfunga o'xshar lashkare yo'q.

Firoqing o'tida miskin Atoyi
Erur parvonaye bol-u pari yo'q.

* * *

Kerakmas sensizin jon-u tiriklik,
Afalloh, dardi hijron-u tiriklik.

Labi la'ling bila sarvi ravoning
Bag'ishlar obi hayvon-u tiriklik.

Raqiblar suhbatlari jon zavqini eltur,
Xush ermas, ore, zindon-u tiriklik.

O'larmen – bo'lmasang bu shahr-u elda,
Yusufsiz ya'ni Kan'on-u tiriklik.

Atoyi o'ldi, sizga boqi bo'lsin,
Jahonda to abad jon-u tiriklik.

* * *

Husn bog'ida yuzungdek vardi hamro ko'rmaduk,
Misr mulkinda labingtek qand-u zebo ko'rmaduk.

Chin-u Mochin-u Xo'tanda ko'zlaringtek rahmsiz,
Bexato qon to'kkuchi bir turki yag'mo ko'rmaduk.

Qomating bolosina borduq tamosho qilgali,
Bir balo ko'rduk, taolallohki, bolo ko'rmaduk.

Bu ulusta xo'blar ko'rduk, vale, ey o'zbekim,
Dilraboliqta sizingdek sho'xi ra'no ko'rmaduk.

Sevgali ey siymtanlik, ko'ngli fulodim seni
Dunyoda tig'i jafodin o'zga qat'o ko'rmaduk.

Nozaninlarda vafo-u mehr bor derlar, vale
Ko'p eshittuk biz dag'i bu so'zni, ammo ko'rmaduk.

Desalar ne ayb Atoyining so'zin durri yatim
Kim, firoqingda aning yoshicha daryo ko'rmaduk.

* * *

Ey xayoling to abad hamroz-u yo'ldoshim maning,
Qaydakim bo'lsa ayog'ing, andadur boshim maning.

Topmasam vaslingnikim, ul Nuh umridur manga,
G'arqi to'fon aylagay olamni ko'z yoshim maning.

Ey jafochi toshbag'irliq, rahm qilmassen manga,
Kuydi, o'rtandi g'am o'tinda ichim-toshim maning.

Tuproq'imni ko'zga qilgaylar maloyik to'tiyo, Xoki
rohing gar kafanda bo'lsa yo'ldoshim maning.

Gah-gahi boshing uchun davlat ayoqin sun manga,
Husnning nuql-u mayindin mast-u qalloshim maning.

Lavhi ko'nglumda yuzung naqshindin o'zga sezmad,
Suratim tasvir qilg'on damda naqqoshim maning.

Ko'rsa qoshingni Atoyi, boshlasa devonaliq,
Ayb qilma, chun yangi oydur deding qoshim maning.

* * *

Ey begim, to bastayi zulfi siyohingmen saning,
Ko'z uchindin mubtaloyi bir nigohingmen saning.

Qullug'ung birla jahon mashhuri bo'ldum oqibat,
Demading bir kun: «Qulim, kel, podshohingmen saning».

Oxir, ey sarvi xiromonim, o'tarda lutf etib,
Bir yuzumga bos qadamkim, xoki rohingmen saning.

Garchi o'lturdung meni, sansiz tirilgan jirm uchun
Hashrda men ham bu ko'zdin sharmisoringmen saning.

Tiri ohindin Atoyining hazar qil, har kecha
Men duoyi subh ila, garchi panohingmen saning.

* * *

Yuzung sha'mina men parvonalardek,
Soching zanjirina devonalardek.

Bo'lubtur ganji vasling hasratida
Ko'ngulnung kulbasi vayronalardek.

Ko'zung fikrinda ishrat peshalarga,
Topilmas go'shayi mayxonalardek.

Yuzung davrinda Yusuf dostonin
O'qurlar om-u xos afsonalardek.

Azaldin oshnongizmen, valekin
Bo'lubturmen bukun begonalardek.

Tuzoqqa ildi ko'nglum andalibin
Guliston ichra xoling donalardek.

Atoyi ko'nglining ahdi butundur,
Agar sindursangiz paymonalardek.

* * *

Ey husn ichinda mulkati be muntaho saning,
Mehr-u vafo meningdir-u, javr-u jafo saning.

Og'zing bila muzoyiqa yo'qtur jon ustida,
Ko'nglum – uyung, boshim – sadaqang, men gado saning.

Jon g'orat aylading, ko'ngul olding, sog'inmading,
Qaysi jafongni chekmadim, ey bevafo saning?

Kim sevdi yaxshi so'zni, kuymadi, o'rtanmadi?
Ishqing o'ti tutashmadi yalg'uz mango saning.

O'ltur, o'lay qoshingda yuzunga boqa-boqa,
Bo'lsun hayoti Xizr ila umri baqo saning.

Bas, noumid qildi meni vasl yo'lidin
Begonalardek o'tkaning, ey oshno, saning.

Javrungni xud Atoyi vafocha ko'rar, vale
Chiqqay jafochilikka oting xalq aro saning.

* * *

Ey bihishti jovidon, bir lahza diydoring saning,
Kavsari moi maiyn la'li shakarboring saning.

O'zgalarda zulf-u xoli bo'lsa husn asbobidin,
Mahzi husn-u lutf erur boshtin ayoq boring saning.

Bir nazarda yuz ko'ngulni sayd etar ohu ko'zung,
Men emasman yolg'uzun, jono, giriftoring saning.

Baxti gumrahdinmudur, yo Rab, manga mahrumluq
Yo magar matlubig'a yetmas talabgoring saning.

Javri ag'yor ilkidin jonimg'a yettim, oh-oh,
Bandadin yod aylasang, yoro, Xudo yoring saning.

Ey ko'ngul, sen notavon-u ko'zlari jon olg'uchi,
O'lmayin mushkilga, oson bo'lsa dushvoring saning.

Ilg'amas la'lingni sevgan Xizr-u Iysodin sani,
Istamas suhbatni har kim, bo'lsa bemoring saning.

Gar kiyiklar nofasinda bo'lsa qondin mushki Chin,
Lola-vu guldin butubtur mushki totoring saning.

Ul yuzi gulzorning ko'nglina bir qilmas asar,
Ey Atoyi, tosh eritgan nolaye zoring saning.

* * *

sevdi xo'blarni, ayirdi xonumonimdin ko'ngul,
O'zga ne istar maning bu qilcha jonimdin ko'ngul?

Oh, men jonimg'a yettim javr chekmaktin, netay?
Zarra mehr uzmas o'shul nomehribonimdin ko'ngul.

Bu maning yugruk yoshim rozimni elga qildi fosh,
Oshkoro qilmadi sirri nihonimdin ko'ngul.

Vasli hajring qissasin bir kun sanga sharh aylagay,
Chunki voqifdur maning yaxshi-yamonimdin ko'ngul.

Bo'lgali bezor mendin oy yuzungnung mehrida
Yil kechar, kechmas maning bir kun gumonimdin ko'ngul.

Bitisam, bo'lg'ay nasihatnomalar yuz «Ganji panj»²⁵¹,
O'zga qilmas Xisravi Shirin daxonimdin ko'ngul.

Jon berur mahbub uchun oshiq Atoyi, necha sen
Har dam aytursen: «Ayirdi xonumonimdin ko'ngul».

* * *

Hajring g'aminda bo'ldi tanim pora, pora qil,
Qilcha jonimni ol, dag'i dardimga chora qil.

Husnung so'zin yuz o'tru desam, yuz ko'rar desang.
Ol ko'zgu, sun'i Haqni o'z-o'zing nazora qil.

Tarkibi suratingni qilurda farishtaga
Ko'nglungni Tengri dedi: «Sangi xora qil».

Derlar yuzungni oy, shaydonikim, na bilgay ko'k?
Ul oy qoshinda netay, meni bir sitora qil.

Gar xokiy o'lsam ul mayi la'ling xayolidin,
G'am toshi birla shishayi ko'nglumni pora qil.

Qon yutkanimni g'uncha bikin, ey sabo yeli,
Bir subhidam hikoyat ushul gul'uzora qil.

Tut go'shaye, Atoyi, sanamlar ko'zi bikin,
Sohibnazar bo'l, ahli jahondin kanora qil.

²⁵¹ «Panj ganj» – Nizomiyning «Panj ganj» («Besh xazina») nomi bilan shuhrat qozongan «Xamsa»siga ishora.

Andakim qildi tavaqqu' vasli jonondin ko'ngul,
Bag'rini suv ayladi, yuvdi ilik jondin ko'ngul.

Kuydum, o'rtandim, netay, ul qosh-u ko'zni ko'rgali,
Kelturur yuz fitnani boshimg'a har yondin ko'ngul.

Kirgali jon mulki ichra shahri yag'mo xo'blari
Tinmadi bir lahzaye toroj-u tolondin ko'ngul.

Yod qilmas zulf-u ruxsor-u xatingni ko'rgali,
Lola-u nasrin-u sunbul birla rayhondin ko'ngul.

La'lingiz yodi bila gar o'lsa hijron cho'lida,
Qone' bo'lsun ichsa birdam obi hayvondin ko'ngul.

El tilar uchmoq borin, lek jonim bulbuli
Zulfi savdosinda uzmas «Bog'i zog'on»din ko'ngul.

Gar Atoyini falak o'ltursa, tuproq aylasa,
To Qiyomat o'zga qilmag'ay Xiyovondin ko'ngul.

Menglaring mushki Xo'tan yo nuqtayi jondur, begim?
Englaring vardi Eram yo bog'i rizvondur, begim?

Jur'aye la'ling mayindin odamiylar jon topar,
Ayb emas so'rmoq, magar ul obi hayvondur, begim?

Il meni chavgoni zulfung birla bir dam go'ytek
Kim, firoqing ilkida holim parishondur, begim.

Bu tiriklar sonida tutqon xayolingdur meni,
Yo'q esa, jonsiz tirilmaklik ne imkondur, begim?

G'orati hijron elindin muflis-u bechoramen,
Xoni vaslingdin karam qil, vaqti ehsondur, begim.

Har nekim Yusuf jamolindin, eshittuk, sendadur,
Bu Hiri shahri magarkim mulki Kan'ondur, begim?

Bu Atoyi qulni sevdung deb meni yozg'urmag'il,
Ul nechuk etsun, ko'ngul bir boshqa sultondur, begim.

* * *

Bir nazar ayla bizga, ey husn ila mehr-u moh ham
Kim, so'rar o'z gadoyini lutf ila podshoh ham.

Bo'lma bahori husnunga g'arraki bu xazoni umr,
Bog'i hayotta ne gule qo'yg'usi, ne giyoh ham...

Yo'l yurusang, surar edim yuzuma xoki rohni,
Emdi uchar ko'zumdin ul yurish-u xoki roh ham.

So'ndurur edi hajr o'tin, chiqsa ko'nguldin ohi sard,
Ohki, qolmadi, netay emdi, majoli oh ham...

Soyayi zulfunguzni siz tutmangiz oydin darig'
Kim, ikki dunyoda ango nisbati davr-u panoh ham.

* * *

Alminnatu lillohki, yana yorni ko'rdum,
Jon hamnafasi, mahrami asrorni ko'rdum.

Baxtim, magar uyg'ondi og'ir uyqusindinkim,
Mehnat yongilib, davlati bedorni ko'rdim.

Umrin chamani ichra yana yoz ochildi
Kim, ul bo'yi sarv-u yuzi gulnorni ko'rdum.

Zohid manga arz aylamasun bog'-u jinonin,
Jannatni netay, emdiki diydorni ko'rdum.

Ne sabr ko'ngul ilkida qoldi, ne tahammul,
Qandin men ushul qomat-u raftorni ko'rdum.

Qon ila bag'ir ne, tikan ur ikki ko'zumga,
Sensiz ne uchun lolayi gulzorni ko'rdum?

Butmon desalar g'amzang o'qining yorasindin,
Bu xasta Atoyi kibi afgorni ko'rdum.

* * *

Ayoqing tuprog'i birla qasamkim,
Manga sensiz pari qaysi, sanam kim?

Ko'ngul matlubi husnungdur manga bas,
Vafo yo jud-u, yo zulm-u sitamkim.

Jamoling partavidur jumla olam,
Kunisht-u dayr yo Bayt ul-haramkim.

Chu yo'qtur Vojibi mutlaqdin o'zga,
Vujudi mumkin-u bahsi adamkim.

Ahaddur asl-u far'i jumla a'dod,
Hisobi beadam bisyor-u kamkim.

Nabiy qavli bila insondin o'zga,
Mahalli Arsh-u Kursi-yu Qalam kim?!

Bu kun kuyungda itlar zumrasinda
Atoyitek aziz-u muhtaram kim?!

Desangkim: «Jon sipar qilg'il, Otoyim!»
Turubmen ushmunok, o'ldur, ot, oyim!

Qulungmen, saqlasang jonim borincha,
Agar saqlamasang, sen bil, sot oyim!

Necha sarxush esang husnung mayindin,
Vafo jomi mayindin ham tot, oyim!

Baqosizdur bu besh kun umri foni,
Baqoyin oy yuzunga bot-bot, oyim.

Falaktin o'tkarurmen mehring o'qin,
Desangkim: «Qaydasen, oyo, Otoyim?»

* * *

Xasta ko'nglumdin xayoling bir zamon ketmas, begim,
Nechakim, vasling etakiga qo'lum yetmas, begim.

Netayin, darmonda bo'ldum men bu ko'nglum ilkida,
Sensizin hech yerda bir lahza qaror etmas, begim.

Garchi sen dashnom etarsen, men duochimen sanga,
Oshiqi sodiq jafodin anlini chetmas²⁶, begim.

Sen meni ta'zim etib qullar soninda tutmagil,
Itlaring xaylinda bo'lsam, ne manga yetmas, begim?

Ta'nadin qovmas Atoyini eshikingdin raqib,
Hech gadoy it ura²⁷, eshikni qo'yub ketmas, begim.

* * *

To ko'ngulda orazing naqshin musavvar ayladim,
Aksidin jon xilvatin har dam munavvar ayladim.

²⁶ Anlini chetmas – peshonasini tirishtirmas.

²⁷ Ursa - hursa.

Ko'p uzun tun to sahargah sochlaring avsofida,
Majlisi oshifta dillarni muattar ayladim.

Qandi la'ling sharbatindin ber dedim bir choshne,
Ey afalloh, sen kechurgilkim, muqarrar ayladim.

Bir varaq oltun yuzumni xatti-mushkning uchun,
Rishtayi siymin ashkim birla musattar ayladim.

Har kishi ahdi azalda qildi bir ishni qabul,
Men ko'ngulda oy yuzung mehrin muqarrar ayladim.

Nechakim afg'on qilurmen toleyim qilmas nazar,
Go'oyo baxtim qulog'in noladin kar ayladim.

O'zgalar nafs-u havodin qilsa xo'blarg'a nazar,
Men Atoyitek o'zumni ruhparvar ayladim.

* * *

Ey base shaydo ko'ngullar qiblasi – qoshing, begim,
Bir nazar qil ko'z uchundin bizga, o'z boshing, begim.

Qilni ikki yormish-u qilmish azalda bir qalam
Belingiz tasvirini qilg'onda naqqoshing, begim.

Sunbul-u rayhon sochingiz qo'llaridur bog'liq
Ham to'lun oy ertaki dog'liq qaro doshing, begim

Gar qaro zulfung uchun yuz mendek o'lsa bok emas,
Sen tirik bo'l to abad, bo'lsun uzun yoshing, begim.

Kirpikim jorub etay, yuzumni xokandoz ham,
Gar qabul etsa meni qulluqqa farroshing, begim.

Ko'rgali usruk ko'zungni savma'a zohidlari,
Bo'ldilar barcha Atoyi, mast-u avboshing, begim.

* * *

Ey g'am-u darding saning payvasta aysh-u ishratim,
Mehri vasling birla yo'g'rudli azalda tiynatim.

Har namozimda mening kofirg'a islomim agar,
Zulf-u xoling qullug'indin o'zga bo'lsa niyyatim.

Eshikingda it meni ko'rdi, raqibdek qovladi,
Davlatimga, ko'r, ne yerga yetti izzat-hurmatim.

Goh-gohi el ko'rub husnungni hayron bo'lsalar,
Men seni ko'rgan sayin ortar burung'i hayratim.

Furqatingda o'rtar erdi bu zaif ko'nglumni oh,
Oh, emdi qolmadi oh urg'ali ham quvvatim.

«Qil bihil, o'lsang Atoyi, hasratim birla», – dema,
Gar saning ishqing bila o'lsam, zihi xush davlatim.

* * *

Ne inoyatsiz manga, jononi taqsir ayladim,
Jong'a yettim qayg'udin, oyoni taqsir ayladim.

Baski, fikr ettim gunohimni uzun tun to sahar,
Tutti ko'nglumni g'am-u savdoni taqsir ayladim.

Aql-u hushum, zikr-u fikrimda tamanno o'zgani
Qilmadim, bir lahzayi haqqoni taqsir ayladim.

Siz hamon ruxsorasi lola begimsiz, qaddi sarv,
Qullug'ungda men hamon loloni taqsir ayladim.

Bandaning haqqidag'i anvoyi lutfungdin burun
Emdi yo'qtur biri ham, paydoni taqsir ayladim.

Xidmatingda o'zgalar a'lo marotibqa yetib,
Barchadin bo'ldi bu qul, adnoni taqsir ayladim.

Der Atoyi hasratingda har zamon yuz oh urub,
Yod qilmassen meni, yoroni taqsir ayladim.

* * *

Qildim havas labing uza shirin nabottin,
Yuvdum ilikni Kavsar-u obi hayottin.

Og'zingda mu'jiz oyatini Iyso ko'rub ziyod,
Bizdin qochib yoshundi ko'k ichra uyottin.

Sen husn ila g'anisen-u men mustahiq faqir,
Yillarda bir nazar manga oxir zakottin.

Hajring cho'lida suvsab o'larmen, vale ne sud?
Har necha ko'z yoshim oqar ortuq Firottin.

Mahbub vaslasinda o'qurmen muhib so'zi,
Qat'i taalluq etmagucha koinottin.

Zinhor ishq ishini o'sal tutma, ey ko'ngul,
Osoni mushkil erur aning mushkilottin.

Chun siflalar nasibi bulubtur har ot-u to'n uchun,
Kel, xirqa kiy, Atoyi, ravon bo'l Hirottin.

Soqiyo, keltur mayi gulgunki, xush damdur bu kun,
Olami farxundayi navro'zi olamdur bu kun.

Nakhati bodi sabodin topti o'lganlar hayot,
Habbazo bodi sabo, Iysoyi Maryamdur bu kun.

Qomati gulbun chamanlar sahnida ta'zim uchun,
Soqiyi gulrux bikin sarv onlida xamdur bu kun.

Yer yuzinda gulshan-u bog'-u bahor-u bog'cha,
Gunbazi xazro mengizlik sabz-u xurramdur bu kun.

Har kishigakim muyassardur parivash yor ila,
Jur'aye no'sh aylamas, xoshoki odamdur bu kun.

Kingakim bo'lsa safoli birla maydin jur'aye,
Ushbu to'qquz shishadin ko'ngliga ne g'amdur bu kun?

Salsabil-u kavsar-u mo'u ma'iy²⁸ keltursalar,
Jomi may majlisda barchadin muqaddamdur bu kun.

Kel, dame mayxonaning baytulharomin qil tavof
Kim, sanamlar la'lidin may obi Zamzamdur bu kun.

Ey Atoyi, bo'lma g'ofil, bir nafas hamdam tila,
Umrni hamdam kechurmaklik, base, kamdur bu kun.

* * *

Og'zingizkim qildi ihyo obi hayvon suratin,
Bir tabassumda adamdin ko'rguzur jon suratin.

Siz malaksizkim, o'qurlar sizga to zohid bashar,
Yo'q esa bu vajh ila kim ko'rdi inson suratin?

²⁸ Mou ma'iy – oqar suv, Qur'oni karim ifodasi; "Mulk" surasi, 30-oyatiga ishora, ma'nosi: «**Ayting: «So'zlanglar-chi, agar suvlar-ingiz yer ostiga singib ketsa, kim sizlarga oqar suvni (kashf etib) keltira olur?! (Albatta, faqat Alloh keltirur!)**».

Qoshingizga o'xshatayin deb yurur bir oy tamom,
Aylar oxir bir hilole mohi tobon suratin.

Hajringizda ko'z yoshimni ko'rmaguncha sizmadi²⁹
Bir musavvir Dajla-vu Jayhunda ummon suratin.

Ushbu yuzni Yusufi Kan'on degaylar Misr eli,
Ko'rsalar chohi zanaxdoninda zindon suratin.

Ey musavvir, sizsang ul Layli sifatlik shaklini,
Sizgasen onlinda men Majnuni hayron suratin.

Yo'qturur ikki ko'zi ko'rsa Atoyini raqib,
Xud ko'ra olmas, bale, kofir musulmon suratin.

* * *

Sahar ohista g'amdin oh dermen,
Kishi anglomasun nogoh dermen.

O'zumni bir gadoyi ko'y o'qurmen,
Seni husn o'rdasinda shoh dermen.

Sen ul gul xirmanisenkim, qoshingda
Gulistoni eramni koh dermen.

Bu yo'lsizni kechur, haddimni bilmay,
Yo'lungda banda xoki roh dermen.

²⁹ Sizmadi – chizmadi.

Men o'lganni labing tircuzdi lobud,
Ani Isoyi ruhulloh dermen.

Qulungdur anli dog'liq mohi gardun,
Seni bu vajh ila men moh dermen.

Atoyi qul gadoyimdur demishsen:
«Begim, lutfungg'a «shay'anlilloh» dermen».

* * *

Barcha miskin-u faqir-u bekas-u bexesh uchun,
Boqi tutsun Tengri sizni xosa men darvesh uchun.

O'zni o'lturmak musulmonliqdin ermastur, vale
Men o'zumni o'lturay sen turki kofirkesh uchun.

Bo vujudi bu jamol istar vafo sendin, ko'ngul,
Vah, ne tadbir aylayin men bu majol andesh uchun?

Yodgori yor erur bag'rimdag'i reshim maning,
Marham ey jarroh, qo'yma bu o'ngolmas resh uchun.

Vasl no'shi dunyoda bo'lmas, Atoyi, neshsiz,
Joni majruhungni saqla, oshiq ersang no'sh uchun.

Shammayi sharh aylasam tobug'da hijron qissasin,
Sen degaysenkim, o'quydur piri Kan'on qissasin.

Furqatingda ko'z yoshimni qissaxonlar ko'rgali
O'qumaslar majlisi mahfilda to'fon qissasin.

To'kti qonimni labing, men so'rmadim andin dame,
Chun so'rulmas qoziyi ishq onlinda qon qissasin.

Sen buti Chin ishqida holimni ayb etgan kishi
«Mantiqu-tayr» ichra ko'rsun Shayxi San'on qissasin.

Sunbuli zulfindin o'tsang, ey sabo, Tengri uchun
Arza qilg'aysen Atoyining parishon qissasin.

Qon bog'ladi la'ling havasindin jigar, ey jon,
Oxir ko'z uchindin manga bir dam nazar, ey jon.

Sen bir to'lun oysen, ne ajabtur, sanga yetmas,
Gardundin o'tar nola-vu ohim sahar, ey jon.

Og'zingda so'rub bilmaduk, illo, qil uchincha,
Belingda tilab topmaduk, illo, kamar, ey jon.

O'lgan kishini tirguzadur bir nafas ichra,
Iyso degan el la'li labingdur magar, ey jon.

Gesu bikin egrashti seni kecha-vu kunduz,
Ohim tutunindin nafase qil hazar, ey jon.

Shirin dudog'ing xidmatina belini bog'lab,
Yillar yugurub topmadi sizni shakar, ey jon.

Jonin manga topshurdi, dog'i bordi Atoyi,
Qil tarbiyatdin bore o'tarda guzar, ey jon.

* * *

Sensiz, ey labi chashmayi hayvon, netayin men?
O'rtandi firoqing o'tida jon, netayin men?

Qayda borayin, kimga deyin dardi dilimni,
Bo'ldi jigarim hasrat ila qon, netayin men?

Poyoni bo'lur dunyoda barcha nimaningki,
Yo'qtur bu saning dardinga darmon, netayin men:

Majnuni giriftor bikin Layli g'amida,
Necha kezayin be sar-u somon, netayin men?

Zulfungki, uzun tunlar aning fikridadurmen,
Bir shom manga bo'lmadi mehmon, netayin men:

Ko'p javr-u jafolar manga qilding, vale ko'nglung
Bo'lmas biridin zarra pushaymon, netayin men?

* * *

Ey ko'ngul, tutgil o'shal sohibnazarlar millatin,
Ko'zga ilmaslar farog'attin Sulaymon mulkatin.

Boda ich, tut go'shaye, xo'blar ko'zidek forig' ul,
Totma ot-u to'n uchun bu to'qqiz ayvon minnatin.

Faqr ichinda podsholar bor sipoh-u taxt ila
Kim, ururlar qudsilar ko'kda ularning navbatin.

Porso mayxoralarni xor ko'rma asrukim,
Tengridin o'zga kishi bilmas alarning niyyatin.

Qoziyi ishq olida ul muhtasib qoni halol,
Saqlar o'z nomusini-yu, saqlamas may hurmatin.

Ey saxovat da'vi qilg'on jumla nom-u nang uchun,
Kel, dame mayxonada ko'rgil gadolar himmatin.

Gar falak faryodinga yetmas, Atoyi, kel, tila
Haq taolodin Muhammad Jo'ki sulton davlatin.

Uza bilmon ko'ngulni xo'blardin,
Tan-u jondin aziz mahbublardin.

Ko'ngul to bo'ldi vaslingg'a giriftor,
Uzuldi jumlayi matlublardin.

Labing shavqinda har xatkim bitarmen,
O'qurda qon tomar maktublardin.

Ko'ngullar lashkarin sultoni ishqing
Qilur bir hamlada mag'lublardin.

Xaloyiq ko'p turur Kan'onda, lekin
So'rung Yusuf so'zin Ya'qublardin.

Mudarris, orif o'l, qil jurm hosil,
Necha daf'i vajh-u mansublardin.

Chu bilding og'zidin vahdat rumuzin,
Atoyi, qat' qil mahjublardin.

Ko'zum to ko'rdi zulfining kamandin,
Ko'ngul bo'ynumg'a soldi ishq bandin.

So‘rar ruxsoringizni ko‘rsa savsan:
«Ne zebo loladur?» – deb nastarindin.

Ne bilsun tubi sevgan past himmat
Saning bu qomating sarvi balandin?

Jamoling infiolindin qizil gul
Qaro boshin olib ketti chamandin.

Agar jon suratin ko‘rmak tilarsen,
Ko‘rung ul tanni nozuk pirahandin.

Meni Tengrim yaratsa bir katone
Ki, fayz olsam o‘shul shirin badandin.

Atoyi husnuning oyin vasf qildi,
Malohat birlakim degaylar ondin.

* * *

Ey nuri diyda, sensiz anga nur bo‘lmasun,
Hech ko‘z jahonda beruxi Mansur bo‘lmasun.

Valloh, agar xayoling uchun bo‘lmasa vatan,
Hargiz ko‘ngul xarobida ma‘mur bo‘lmasun.

Jannatta gar tajallii husnungni ko‘rmasam,
Kavsar suyi so‘g‘olsun-u ham hur bo‘lmasun.

Jon surati taningkim erur jon arosida,
Payvasta Haq amonida ranjur bo'lmasun.

Bu husn-u, bu jamol-u latofat bila seni
Kim noz qilmasun der-u ma'zur bo'lmasun.

Ko'z yoshi birla bodi sabo qildi sirrini fosh,
Jahd ayladim, bu munchaki mashhur bo'lmasun.

Soldi ko'ngul Atoyini xo'blar balosina,
Hech kimsa ko'ngli amrina ma'mur bo'lmasun.

* * *

Bo vujudi orazing bargi sumandin kim desun?
Loladin kim so'zlasun ham nastarandin³⁰ kim desun?

Dunyoni tutti saning husnung bila dardim so'zi,
Yusuf-u Ya'qub ila bayt ul-hazandin kim desun?

La'lingiz birla dam urmas zarrayi sarrofi aql,
Ore yaxshi bor ekan, asli yamondin kim desun?

To visolingdin yiroqmen, yovumas hech kim manga,
Joye o'ldur, ayb emas, jonsiz badandin kim desun?

Zulf-u xolingdin muattar bo'ldi olam, ba'dazin
Nofayi ohu-yu totor-u Xo'tandin kim desun?

³⁰ Nastaran – nasrin guli, oq bo'lib ochiladigan bi xil gul.

Makr-u fan aylab meni, sayd etti derlar el seni,
Men azaldin mubtalomen, makr-u fandin kim desun?

Eshikingdakim, shahanshohlarga anda bor yo'q,
Bu Atoyidek gadoyi bevatandin kim desun?

* * *

Nechaki tark eta bilmon sanga vafo havosin,
Mening haqqimda qilursin hamin jafo havosin

Ko'ngul sochingni duoda tilar uzun tunlar,
Magarki, rahmati savdo qilur balo havosin.

Yuzungni ko'rdum-u qildim qoshinga shukr-u duo,
Kishiki Ka'bani ko'rsa qilur duo havosin.

O'shalki, husn elini sevdi oqibat mendek,
Gar o'lsa dard ila qilmas dame davo havosin.

Raqib ko'yida yo'l ber mango barhamantek³¹,
Yana qilur dil-u ko'nglum kaliso havosin.

Hasad yer ul kishikim, bu sipehri atlaspo'sh,
Qo'yor harir-u, qilur shol-u bo'riyo havosin.

³¹ Barhaman (barahman) – otashparastlar ibodatxonasining boshlig'i.

Atoyi sen kabi sulton visolin orzu qilur,
Tafarruj ayla, agar marde bu gado havosin.

* * *

To musavvar bo'ldi naqshing xomayi taqdirdin,
Yig'di xijlatdin ilik naqqoshi Chin tasvirdin.

Bora-bora ko'yungizda bo'ldi oltundek yuzim,
Bor magar tuprog'ida xosiyati iksirdin.

Ko'zlaringni tush ko'rub, so'rsam muabbir der manga:
«Bu tushung ta'birini so'r sohiri Kashmirdin».

Vah, ne mus'hafdur yuzungkim, kashfi «Kashshof» ayladi,
Xatm qildi, ko'rgach oni dars-u ham tafsirdin.

Uyqug'a hamsoyalar muhtojdurlar har kecha,
Baski, tinmasmen fig'on-u nolayi shabgirdin.

Bu maning ko'nglumdagi ishq og'rig'idur, ey tabib,
Qo'y davo tadbirinikim, o'tti ish tadbirdin.

* * *

Ey jamoling ravzasindin munfail xuldi barin,
Shakkar og'zing chashmasinda Xizr-u Iyso hamnishin.

Xirmanı umrumni yelga bergusidur oqibat,
Ko'zlaring qoshinda xoling donasi aynul yaqin.

Bir kecha oy bosh qo'yar oltun bo'sog'ingg'a saning,
Gar inonmaslar dalil ush olida nuri jabin.

El o'lukni yod etarlar gah-gahi takbir ila,
Ey tiriklik hosili, sen meni avvalday sog'in

Bexato kuffor eliga din-u iymondin berur,
Ehtiroz etmas kishi kofir ko'zung yag'mosidin.

Rashk elinda qon yutar jonim surohidek mudom,
Dam-badam o'psa piyola nozaninlarning labin.

Chun Atoyi topti yorin, jon arodin chiq ravon,
«Li maalloh» qurbida hojat emas Ruh ul-Amin.

* * *

Ey jafochi, men seni sevdumki, jonon bo'lg'asen,
Bilmadim, mundoq vafosiz, dushmani jon bo'lg'asen.

Murni ozurda qilma xossa oshiq ko'nglini,
Husn mulkinda tilarsankim, Sulaymon bo'lg'asen.

Qolmadi sabr-u qarorim, oq uy ichra har zamon
Ko'zlarimning mardumidek necha pinhon bo'lg'asen.

Jumla olam qomatingdin o'granurlar rostliq,
Hayf emaskim, sen munungdek ahdi yolg'on bo'lg'asen.

O'lturursan bizni ya'ni naqdi husnum sevdi deb,
Bu ziyondur qilmag'il, oxir pushaymon bo'lg'asen.

Gar meni hajr og'rig'i o'ltursa ham, kelmas so'ra,
Nogahon rahming kelib, holimg'a pazmon bo'lg'asen.

* * *

Ey turfa parisen, ne ajab odamidursen?
Har qaydaki bor jon-u ko'ngul, hamdamidursen.

Kirpiklaring o'qi yara qilg'an yuragimni,
Bir boqmoq ila ko'z uchidin marhamidursen.

Ko'nglum uyida o'zgalarga bermagaymen yer,
Chun dunyada sen ushbu haram mahramidursen.

Ko'rkluk kishilar ilmidurur xud ko'ngul olmoq,
Bu fanda vale sen barining a'lamidursen.

Ey g'am, agar o'ltursang Atoyini yozuqsiz,
Netsun, ne desun, chun sevarining g'amidursen.

* * *

Nechakim dilbar meni kuydurdi hijron noridin,
Hosha lillohkim³², shikoyat qilsam oning soridin.

Ishq misrinda aziz o'lmas Zulayxotek kishi
Kechmayin Yusuf uchun nomus-u nang-u oridin.

Ko'zlaring gar to'ksa qonim, jon anga bo'lsun fido
Kim, jaf o' ayni vafodur yorg'a sevgan yoridin.

Men netay bog'i bihisht-u qasri xuld-u hurni?
Chun manga bir dam visoling yaxshiroqtur boridin.

Oshiq ermas ul muhavviskim, tilar zar birla vasl,
Oshiq uldurkim, visoling naqdin istar zoridin.

To sabo zulfung nasimin Chin elinda yoygali,
Mushk savdosi kesildi shahri Chin attoridin.

Gar Atoyidin muhabbatning nishonin istasang,
Kirpiging o'qin chiqorg'ay siynayi afgoridin.

* * *

Jonga tegadur jafoyi hijron,
Kimdin tilayin davoyi hijron?

³² Hosha lillah – Alloh asrasin.

Yo'qtur kishi ko'z yoshimdin o'zga,
Qilsam ango mojaroyi hijron.

Hijron demangiz sanam firoqin,
Ul o'lmak erur, chi joyi hijron?

Do'zax sifatinki qildi voiz³³,
Valloh, emas ul varoyi hijron.

Shod erdi ko'ngul visoli birla,
Bo'ldi g'am ilan gadoyi hijron.

Har kimniki sof vasl usurtur,
Maxmur etar oni loyi hijron.

Ushshoq g'amin Atoyidin so'r,
Derlar oni naynavoyi hijron.

* * *

Yuzung xurshedtek tobanda bo'lsun,
Jamoling to abad poyanda bo'lsun.

Takallum qil, sochilsun durri gavhar,
Tabassum qil, jahon purxanda bo'lsun.

Yuzungdin burqa' olg'il bir zamone,
Uyolsun oy-u kun sharmanda bo'lsun.

³³ Voiz – va'z qiluvchi, nasihat beruvchi.

Meni o'lturgali g'amzang qilichi
Ko'zungdek kofiri buranda bo'lsun.

Pari ruxsoralarning Xisravisen,
Seningtek joni shirin qanda bo'lsun?

Agar o'lsam, tilarman Tengridinkim,
G'aming jonimg'a, darding tanda bo'lsin.

«Falone qullarimdindur», – demushsen,
Atoyi ushbu so'zga banda bo'lsun.

* * *

Ey pari paykar sanam, sen nasli odamdinmusen,
Yo malak, yo hur, yo ruhi mujassamdinmusen?

Surating Ruh ul-Qudusning ma'nisin qildi ayon,
Odamiy vajhinda kelgan ismi a'zamdinmusen?

Orazingning ka'basin ko'rgan safoliq hojilar
Dedilar, chohi zanoxdoning'a Zamzamdinmusen?

Hajring o'lturganga la'ling bir nafasda jon berur,
So'r onikim, mu'jizi Iysoyi Maryamdinmusen?

Jon dimog'i topti sendin oshnoliq bo'yini,
Chin oyitqil, ey nasim, ul zulfi purxamdinmusen?

Ey muborak ne kabutarkim seni el noma der,
Kel, ko'zimda oshiyon qil, yori mahramdinmusen?

Mehnat-u g'am birla umrung bo'ldi oxir yor uchun,
Ey Atoyi, sen muxammar tiynat-u g'amdinmusen?

Sipehri husn ichinda moh sen-sen,
Zamona xo'blariga shoh sen-sen.

Tabassum qilsa la'ling jon bag'ishlar,
Magar Isoyi ruhulloh sen-sen.

Agar hur-u pari bo'lsa kerakmas,
Manga, ey jon, bu kun dilxoh sen-sen.

Bu oq evda qaro ko'zlar base bor,
Valekin fitnayi xirgoh sen-sen.

Tiriklik hosili ey yor dardi,
Gar o'lsam, onda ham hamroh sen-sen.

Ko'ngul dardiga bir darmon qil emdi,
Chu jonim dardidin ogoh sen-sen.

Atoyi ul yuzi gul hasratinda
Tikon bag'rinda, rangi koh sen-sen.

Ey g'aniy, husn-u jamoling birla taxt-u tojdin,
Ne ayarsen bir qiyο boqmoqni men muhtojdin?

Gar tilar ko'nglungki gulgash t aylasa bo'ston aro,
Ko'zlarim taxti ravondur obnus-u³⁴ ojdin³⁵.

«Qoba qavsayn» ittihadin qoshlaring qildi ayon,
Sochlaring xud oyatedur Laylat ul-me'rojdin.

Zulfungiz savdosida jonin fido qildi ko'ngul,
Korvoni Ching'a, ore, chora yo'qtur bojdin.

Rost bo'l ruxtek, Atoyi, ishq birla o'ynama
Kim, harifedur o'tar bir damda yuz lajlojdin.

Agarchi husn ichinda dilrabosen,
Jafo bobinda ham, bas, muntahosen.

Maozolloh! Vafodin o'zga qilsam,
Manga har nechakim qilsang jafo sen.

Nedin kofir ko'zungni sochlaringdek
Qilursen, qilcha jonimg'a qarosen?

³⁴ Obnus – qora tusli qattiq va xushbo'y daraxt. Taxti obnus – obnus yog'ochidan ishlangan taxt. Majozan: qora.

³⁵ Oj – fil tishi, fil suyagi. Majozan: oq, ravshan.

Nazar pokiza xushtur poklarga,
Yuzung oyini har ko'zdin ayo sen.

Saning bo'ynungg'a, ey ko'ngli vubolim,
Meni zulfina qilding mubtalosen.

Haqiqatda muhib, mahbub birdur,
Arodin chiqqil, ey bodi sabo, sen.

Qilursen qomat-u la'lin tavaqqu',
Atoyi, rosti, shirin gadosen.

* * *

Ey bu ko'nglumning huzuri, ko'zlarimg'a nur sen,
Davlati husnungg'a bo'lma asr-u ham mag'rur sen.

Men jafo chekmak bila olamda xud ma'ruf edim,
Hayfkim, bo'ldung vafosizliq bila mashhur sen.

Ne pari o'xshar sanga husn ichra, ne ins-u malak,
Sen magar jannat riyozindin yetilgan hursen?

Yuz uza zulfung cherikin solib, ey husn lo'batl,
Rum mulkin olg'ali kelding, magar Fag'fursen.

Ne suyub sendin to'yar ko'nglum, ne boqib ko'zlarim,
Ey jamol oyinasi, sen ne ajab manzursen.

Zulmi hijron birla ko'nglum shahrini qilding xarob,
Kel viloyat zohir aylab, qil yano ma'mur sen.

Aqli kull sargashtadur savdoyi zulfung ilkida,
Gar Atoyi bo'lsa Majnun, tut oni ma'zur sen.

Necha, ey dilbar, jafo bobin rioyat qilg'asen,
Javrni husnung bikin, behadd-u g'oyat qilg'asen.

Bandaning ne haddi bor vasling tamanno qilg'ali,
Sen magar lutf-u karam birla inoyat qilg'asen?

Ey sabo, qilsang o'shal mushkul salosildin guzar,
Mendin ul devona ko'nglumga hikoyat qilg'asen.

Voizo, chun ko'rdung ul oyning kamoli husnini,
Ayb agar Yusuf jamolindin rivoyat qilg'asen.

Bir nafas yo'qturki, bo'lsang yor dardidin judo,
Ey Atoyi, necha baxtingdin shikoyat qilg'asen.

Seni men angladim, bevafo emishtuksen,
Ko'ngulga ofat-u jong'a balo emishtuksen.

Bu muncha jonlar olib, to'ymading xaloyiqdin,
Ey husn bobi, ne ko'zi qaro emishtuksen?!

Azalda ne gunah etting, ko'ngulki, xo'blardin
Bu muncha mehnat-u g'amza sazo emishtuksen.

Gahiki bossa ayog'in yuzumga, noz ila der:
«Ayog'im og'ridi, ne bo'riyo emishtuksen!»

Yuziga ko'p tika boqsam, manga kulub aytur:
«Atoyi, ne ko'zi to'ymas gado emishtuksen?!»

* * *

Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?
Og'iz yo g'unchayi xandonmudur bu?

Qaroqchi ko'zlarin kim ko'rsa aytur:
«Ajab ayyori Turkistonmudur bu?»

Chiqar har lahza yuz ming sheva birla,
Maloyiq xo'yluq insonmudur bu?

Jahonni tutti Yusufdek jamoli,
Malohat Misrida sultonmudur bu?

Xatikim safhayi gul uzra ko'runur,
G'ubori xatmu yo rayhonmudur bu?

Mudavvar go'yi³⁶ oyin³⁷ yo zinaxdon,
Muanbar zulf yo chavgonmudur bu?

Atoyini ko'rub ko'yinda aytur:
«Ham ul miskini sargardonmudur bu?»

* * *

Manga javr aylar ul dilbar hamisha,
Suchuk tildin achiq so'zlar hamisha.

Kezib xurshedi xovar uydin uyga,
Yuzundin shu'layi istar hamisha.

Ko'zi qoshindin o'q-yoni ketormas,
Ko'ngullar qushlarin ovlar hamisha.

Nasimi zulfidin yuz rashk eltib
O'zin o'tqa solur anbar hamisha.

Vafosiz sarvqomatlar g'amindin
Ko'ngul yaproqlayin tebrar hamisha.

Ajabtur, o'zlari sevgan kishini
Jaf o'z birla sinar xo'blar hamisha.

³⁶ Go'y – to'pga o'xshash har bir yumaloq narsa.

³⁷ Oyin – odat, rasm, urf. ravish, tarz, usul, marosim.

Atoyi she'ridin lazzat qilur kasb,
O'shal lab vasfida shakkar hamisha.

* * *

So'zungdek shakkar, og'zingdin sutuda,
Adamdin kelgani yo'qtur vujuda.

Labing obi hayoti uzra, yo Rab,
Binafsha aksidur yo mushki suda³⁸.

Xating tahrir etarda kotibi husn
Maning ohim o'tidin oldi duda³⁹.

Ko'zung kirpik o'qin otmoq tilar dod,
Yo'luqtum men qoni to'lg'an qobuda⁴⁰.

Jamoling ka'basinda farz bo'ldi
Qoshing mehrobida kelmak sujud.

Ularkim sizni mehri oz derlar,
Meni derlar vafoda ozmuda.

Atoyi bag'rini ko'ngli-yu ko'zi
Tutarlar goh o'tta, goh suvda.

³⁸ Suda – ezilgan.

³⁹ Duda – kuya, qurum, is, kuyundi.

⁴⁰ Qob – kamoning qo'l bilan ushlanadigan o'rta yeridan bir uchigacha bo'lgan oraliq, masofa.

* * *

Ayo sulton, malohat kishvarida,
Qulungdur oy ila kun zarxarida.

Yuzung majmuayi husnedururkim,
O'qurlar gulni andin bir jarida.

Qani jodu ko'zungdek nomusulmon
Xitoyi Chin-u Mochin kofarida?

Topilmas husn bog'inda bo'yungdek,
Niholi noz birla parvarida.

Soching zanjirina devona bo'lg'ay
Agar aql-u xirad bo'lsa yerida.

Raqib uyin so'rarsiz: «Qay sari?» – deb,
Jahannam to'rida, taxtus-sarida.

Atoyi bo'ldi chun suhbat sharhini
Huzuri qolmadi shahri Hirida.

* * *

Jonim sadaqa ul ko'zi bemor sanamg'a,
Boshtin uyurub gesularin solsa qadamg'a.

Ka'ba harami deb eshigi saydi bo'lubmen,
Kofir ko'zi ne deb o'q otar saydi haramga?

Mim og'zi bila zulf-u qadi lom-alifidin,
Ey voy, netay, xasta ko'ngul qoldi alamg'a.

Men javr ila sizdin yuz o'yurgummu, valekin
Hadde kerak oxir, sevarim, javr-u sitamg'a.

Bu damki, latofat ulusin husn ila olding,
Lutf aylaki, yetmas kishi albatta bu damg'a.

Xol-u xatingiz mehrini jon lavhina yozdim,
Ul damki azal kotibi el⁴¹ so'ndi qalamg'a.

Kel, so'r bir og'iz xasta Atoyini, begimkim,
La'ling g'ami birla boradur mulki adamg'a.

* * *

Aningkim sen bikin manzuri bo'lsa,
Yarar xoki rahi ko'z nuri bo'lsa.

Karam xushtur, bale ko'rkluk kishidin,
Nechakim, husnining mag'ruri bo'lsa.

Vafosiz dilrabodin Tengri bezor,
Agar husn ichra jannat huri bo'lsa.

⁴¹ El (al) – qo'l.

O'shalkim sevmasa bir siymtanni,
Gadoyedur, gar oltun qo'ri bo'lsa.

Jahon tuttung jafoda, gar Atoyi
Vafoda dunyoning mashhuri bo'lsa.

Yo Rab, meni ul sarvi xiromondin ayirma,
Bulbulni o'shul bog'-u gulistondin ayirma.

Mahbub firoqi bila o'lturma muhibni,
Mushtoq badanni nafasi jondin ayirma.

Majnun so'zini Layli qabilasida so'zla,
Ya'qub ko'zin Yusufi Kan'ondin ayirma.

Oshiq kishilar payravi men husniga mushtoq,
Ul koni karam, ma'dani ehsondin ayirma.

Maqsudung agar, charx, mening o'lmakim ersa,
O'ltur meni olinda, vale ondin ayirma.

Jonimg'a maning hajr agar qasd qilibsen,
Jonimdin oyirg'il, vale jonondin ayirma.

Jam'iyati xotir tilasang Haqdin, Atoyi,
Bo'yungni o'shul zulfi parishondin ayirma.

* * *

Labi la'ling uchun, ey ko'ngli xora,
Yoshim qon bo'ldi g'amdin bora-bora.

Saning usruk ko'zung orzusunda
Qilur jon shishasin g'am pora-pora.

Muhabbat mushkilotin hal qilurg'a
Topilmas dardi dildin o'zga chora.

Agar yuz pora qilsa jong'a hajring,
Ko'ngilni bermagaymen o'zga yora.

Muvahhidlarg'a sirri «kunt-u kanzan»,
Tabassum ila bo'lsun oshkora.

Haqiqattin xabar tut, ey mudarris,
Necha bahs-u majoz-u istiora.

Saloting'a visoling dast bermas,
Atoyig'a tekarmu juz nazora?

* * *

Yuzungdin rang olur nasrin-u lola,
Ko'zungdin munfail yuz ming g'azola.

Tabassum aylakim, bisyor xushtur
Chamanda g'unchayi xandon-u jola.

Bu kun xud qomating shavqinda o'ldum,
Qiyomatta tilay dodimni hola.

Soching ne turfa davlatlik, ilondur
Kumish ganji uza yotur uzola.

Qo'par fitna, borur olam iliktin,
Xiromon yurusang qo'l sola-sola.

Ne tong, sargashta bo'lsam go'y yangliq,
Soching savdosidin qoldim bu hola.

Falakka yetti, ul oy eshitmas,
Atoyi, necha bu faryod-u nola?

* * *

Sabo, agar guzar etsang habib hazratida,
Bu xasta holini arz et tabib hazratida.

Raqib ta'na qilur bizni benasib debon,
Jafosi bizga ne yetmas nasib hazratida?

Qarorsun ushbu maning toleyimki, hasrat ila
Boshim oqardi-yu bo'lmon qarib hazratida.

Harimi Ka'bada itga haromdur kirmak,
Ne muncha mahram o'lubtur raqib hazratida.

Niqob olurda yuzungdin Atoyini keltur
Ki, gul ochilsa kerak andalib hazratida.

* * *

Kirding tushuma subhidam, alminnatu lilloh,
Tole' yana qildi karam, alminnatu lilloh.

Xayyoti azal husn to'nin tikgali sizga
O'turmas anga gardi g'am, alminnatu lilloh.

Qad yo qilasan, oh o'qini otsa muhiblar,
Tegmas sanga bori alam, alminnatu lilloh.

La'ling o'ti kuydurdi vujudimni, valekin
Og'zing kibi qildi adam, alminnatu lilloh.

Hajr og'rig'ida lutf qilib xayli xayoling
Xush surdi meni dambadam, alminnatu lilloh.

Qulluqqa qabul ayladingiz ushbu gadoni,
Ey shohi jahoni muhtaram, alminnatu lilloh.

Ishqing yo'lida bo'ldi Atoyig'a barobar,
Lutf-u sitam-u madh-u zam, alminnatu lilloh.

* * *

Yo Rab, ul orazmidur yo lola ar-ar ustina?
Yo shaqoyiq bargidur sarvi sanubar ustina?

Yuz uza solsang tarab mushkiy sochingni, englaring
Yosamindurkim⁴², tushubtur sunbuli tar ustina.

La'li serobingiz uzra bu zumurrad sabzalar
To'tiyi go'yo qo'nubtur qand-u shakkar ustina.

Ko'zlaring yetmasmudi jonimni g'orat qilg'ali?
Barsari hinduyi xolung keldi kofar ustina.

Husn ganjidur yuzung, gesularing soqlar oni,
Vah, ne afsunlab boray u ikki ajdar ustina.

Kirpiging jarrohina borsa jarohatliq ko'ngul,
Marhame bermas, urur nishtarni nishtar ustina.

Garchi bulbuldur Atoyi husni vasfinda, vale
Qush uchurmas ul paripaykar sitamgar ustina.

* * *

Yuzungni ko'rdum, ey jon, shukrililloh,
Sevundi joni pazmon, shukrililloh.

⁴²Yosamin – yosmin, jasmin; xush isli, oq va sariq tusli gul.

Umidim bo'stonida yuzungdin
Ochildi yuz guliston, shukrililloh.

Eturgan Yusufin Ya'qub topti,
Tuzuldi mulki Kan'on, shukrililloh.

Visoling oftobi bo'ldi tole,
Tugandi shomi hijron, shukrililloh.

Firoqing cho'lida tashna ko'ngulga
Yo'luqti obi hayvon, shukrililloh.

Tuzuldi davr-u dilbar soqi bo'ldi,
Muvofiq bo'ldi davron, shukrililloh.

Atoyi haqqida har neki derlar,
Demaslar «Ahdi yolg'on», shukrililloh.

* * *

Yoreki o'lturur meni hijron qironida,
Har qayda bo'lsa Tengri taolo amonida.

G'am tavbasinda sizg'urubon imtihon etar,
Bilmon ne fikri bor yana bu imtihonida.

Kirpiki nayzasi bila saflarni sindurur,
Yo Rab, ne mo'jizedurur aning sinonida.

Tarso Masih mazhabini tark etar edi
Gar ko'rsa erdi la'lini Iso zamonida.

Hayratda mahv bo'ldi ko'rub aqli xurdadon⁴³,
So'zlarda, tishlari durrini la'l konida.

Ul qaro ko'zung tuyo ko'rmay ravomudur?
Boshim oqardi ayni yigitlik avonida.

Qolsun desang, Atoyi, o'zungdin jahonda ot,
Ottek yugurgil ul ko'zi ohu inonida.

* * *

Shaho, bizga nazar qilsang ne bo'ldi?
Gadoni mu'tabar qilsang ne bo'ldi?

Ko'ngul yuz poradur gulg'uncha yangliq,
Sabotek bir guzar qilsang ne bo'ldi?

Qaro baxtim bikin hijron kechasin
Visolingdin sahar qilsang ne bo'ldi?

Boqib o'sruk ko'zungdin nosihimni
Maningtek bexabar qilsang ne bo'ldi?

O'tar ohim o'qi to'qquz falaktin,
Vafo birla sipar qilsang ne bo'ldi?

⁴³ Aqli xurdadon – mayda va nozik narsalarni biluvchi aql.

Baloyedur raqib, oxir balodin
Xudoy uchun hazar qilsang ne bo'ldi?

Keturdi mahozar jonin Atoyi,
Qabuli mohazar qilsang ne bo'ldi?

* * *

Hajringda g'am-u hasrat kuydurdi, base, bizni,
Faryodki, yod etmas faryodrase bizni.

Ya'qub bikin bo'lduk g'am kulbasida mahzun,
Ey Yusufi Isodam, so'r bir nafase bizni.

To bog'ladi bo'ynumni ul zulfi Qarobog'i,
Ko'z yoshida g'arq aylar hardam Arasi⁴⁴ bizni.

Qo'ymas suchuk uyqug'a og'zing qoshida xoling,
Hech uyqug'a qo'ygaymu andoq magase bizni?

So'z bahrida chun durlar g'avs ettuk Atoyitek,
Gar ko'rmasa el, ne g'am, miqdori xase bizni.

* * *

Ey lolayi Firdavs yuzung birla mubohi,
Husnung kibi mehrim yuzunga nomutanohi.

⁴⁴ Aras - Ozarbayjondagi bir anhorning nomi.

Qil mulk-u malohatda nidoyi «Limanil-mulk?»⁴⁵
Chun bo'ldi musallam sanga, ey husn eli shohi.

Ohuyi Xo'tan birla Xitoni xijil aylar
Nargislarining zulfi sari tushsa nigohi.

Sultoni jamol o'lg'ali sen ko'nglum uyusin
Goh o'lja qilur, gah talar ul zulfi siyohi.

Zulfung sifatin yozmoq uchun xasta Atoyi
Ikki ko'zining huqqasida qildi siyohi.

* * *

Ko'ngul olding, begim, yoshurmog'ing ne?
Jafoni haddidin oshurmog'ing ne?

Raqiblarg'a qilur la'ling tabassum,
Qonimni g'ussadin toshurmog'ing ne?

Ko'ngil shishasida mehring mayidur,
Jafo birla anga tosh urmog'ing ne?

⁴⁵ «Limanil-mulk» – «Bugun hukmronlik kimniki?» Mo'min (G'o-fir) surasi, 16-oyatiga ishora; ma'nosi: «**U kun ular** (qabrlaridan tirilib) **chiqurlar**. **Ular**(ning qilmishlari) **dan hech bir narsa Allohga maxfiy qolmas**. (U qiyomat kunida butun mavjudot-u maxluqot halok bo'lgach, Alloh aytur:) «**Bu kun mulk** (hukmronlik) **kimniki?**» (O'zi javob berur:) «**Vohid ul-Qahhor – yagona va bemisl qudrat egasi bo'lmish Allohnikidir!**»

Yururda yeng bila og'zingni tutma,
Nimakim yo'q turur, yoshurmog'ing ne?

Atoyi, yerga yel zulfin tegurmas,
Qaro yerga sening bosh urmog'ing ne?

* * *

Xoni vaslingdin, nigoro, benavo qilding meni,
Ko'y-bako'y-u⁴⁶ darbadarlardek gado qilding meni.

Qolmadi olamda bir javr-u jafo men ko'rmagan,
To jamolingdin yamon ko'zdek judo qilding meni.

Ey jafochi, chun qilursen oxira begonalik,
Ne uchun avval o'zungga oshno qilding meni?

Ey ko'ngul, sevma dedim, xo'blarni sevdung, oqibat
Bir baloliqning elinda muftalo qilding meni.

Gar Atoyitek seni sevdum, gunohe qilmadim
Kim, muningdek bastayi band-u balo qilding meni.

* * *

To beniqob ko'rgali ul husn shohini
Ilmon ko'zumga zarra falak mehr-u mohini.

⁴⁶ Ko'y-bako'y – ko'chama-ko'cha, qishloqma-qishloq, mahalla-
ma-mahalla.

Zulfini yuzga soldi ko'ngil mulkin olg'oli,
Yig'di magarki Chin-u Xo'tanning sipohini.

Taxmir etarda tiynati odamni qudsilar,
Kelturdi Jabrail aning xoki rohini.

Nargisga boqti deb meni yozg'urdi ko'zlari,
Usruk kishi bilurmu kishining gunohini?

Har go'shadin ko'ngulga tikilur balo o'qi,
Yod etsam ul qaroqchi qaroqing⁴⁷¹ nigohini.

«Mehrigiyo» derlar oni, topmadi, netay?
Ektim ko'ngulga mehr-u muhabbat giyohini.

Sirringni jonda saqlar Atoyi, valekin, oh,
Beixtiyor chiqsa, nechuk etsun ohini?

* * *

Ko'ngil visol ila ofatni ko'rmagantek edi,
Yiroqliq ichra masofatni ko'rmagantek edi.

Firoq lashkari nogah qildi jong'a hujum,
Yo'q ersa, fitnayi ofatni ko'rmagantek edi.

⁴⁷¹ Qo'lyozmada «qaroqingning» yozilgan. Biz vazn taqozosiga ko'ra «qaroqing» deb o'qidik.

Yuzungni ko'rmayin ayyomi husni Yusufdin
Jamol ichinda izofatni ko'rmagantek edi.

Ko'zum maning sanga to'sh bo'lmag'uncha xo'blarning
Yuzinda nuri latofatni ko'rmagantek edi.

Atoyi so'zlari lutfig'a yetmag'uncha kishi
Kamoli zehn-u zarofatni ko'rmagantek edi.

* * *

Ey begim, sen qilmag'an jong'a jafoyi qolmadi,
Zulmi-u bedod-u g'am-u ranj-u baloyi qolmadi.

Xo'blar javr-u jafosin menmu tortarmen mudom
Yo jahonda mandin o'zga mubtaloyi qolmadi?

Xizr go'yo mu'jizin xattingg'a berdikim, bukun
Obi hayvong'a juz andin rahnamoyi qolmadi.

Tishlaring, erningni chun ko'rdi mubassir javhariy,
Dedi: «Durr-u la'lg'a emdi bahoyi qolmadi».

Obi chashmimg'a raqibing rahm qilg'ondin beri
Itlaring birla eshikta mojaroyi qolmadi.

To qoshing mehrobini ko'rdi aziz joning uchun,
Bu duogo'yung o'qumag'on duoyi qolmadi.

Bilgasen ul dam Atoyi qadrini, ey sultoni husn
Kim, degaylar ul falon miskin gadoyi qolmadi.

* * *

Bog'i bihisht ravzayi husnung kinoyati,
Obi hayot shakkari la'ling rivoyati.

Vaslingdur ulki, jondur anga qiymat-u baho,
Husnungdur ulki, yo'qtur aning hadd-u g'oyati.

Husn elining suyurg'olini chun uloshtilar,
Bo'ldi saningki, har biri ko'nglum viloyati.

La'lingg'a sim alif kibi bormoqni kelturub,
Dersenki, nuqtadur, bale xatting nihoyati.

Solmon nazarni o'zga sanamlar jamolina,
Bo'ldi mango chu go'shayi chashming inoyati.

To podshoh bo'lg'oli sen husn Misrida,
Afsona bo'ldi Yusufi Kan'on hikoyati.

So'fi Atoyi holatini o'tkanur, vale
Ishq ishidur kishiga azaldin hidoyati.

* * *

Ey begim, iyd o'ldi, kel bir lahza sayron qilg'ali,
Iydgah xalqin meningdek jumla hayron qilg'ali.

Barcha qurbonlik qilurlar iyd uchun, men xastadil
Kelturubturmen sanga jonimni qurbon qilg'oli.

Bog'lamaydur husn elinda toqi me'mori azal,
Qoshlaringdek to binoyi to'qquz ayvon qilg'ali.

Xotirimdin qildi g'orat din-u dunyo fikrini
To xayolingni ko'ngul mulkinda sulton qilg'ali.

Sarv bo'yluqlarga yo'qtur e'timodim, roste,
Ul sochi mushkin xito-chin va'da yalg'on qilg'ali.

Yoz faslidur, vale men yor vaslindin yiroq,
Ne yuzim birla boray men gashti bo'ston qilg'ali?

Go'ydek bo'ldi Atoyi har taraf sargashta hol,
Ul sanamlar shahsuvori azmi chavgon qilg'ali.

* * *

Xazontek ayladi baxtim bu yil fasli bahorimni
Ki, hijrong'a mubaddal qildi nogah vasli yorimni.

Bosh olib telba itlardek raqiblar javridin kettim,
Chu bildim itcha ham yo'qtur eshikta e'tiborimni.

Samand na'lin o'pgaysen, tuman ta'zim ila mendin
O'tarda ko'rsang, ey bodi sabo, gulgunsuvorimni.

Yangog'ing lolazorining g'amida, baski, bo'ldum zor,
Chamanda bag'ri qon bo'ldi eshitib lola zorimni.

Beli, og'zi sirin, har ne yorimdin yoshurur erdim,
To'kulsun qoni, fosh etti ulusqa ashkborimni.

Bu xokidin yozug'siz gar g'ubori bo'lsa ko'nglida,
Firoqi shukru lilloh, qo'ymadi gard-u g'uborimni.

Atoyig'a yetar bukim, kelib itloridan so'rsa,
Eshikta bildingizmu deb maning ul xoksorimni.

* * *

Kuyar jonim, netay, dilxoh unutti,
Ko'ngul ahvalidin ogoh unutti.

Falakka yetsa ohim ne ajabkim,
Meni ul Zuhra ko'zluk moh unutti.

Qani bir mushfiqekim, yod bersa,
Gadoyi muxlisin ul shoh unutti.

Bu qulg'a bor ekan bisyor lutfi,
Ne kamlik bo'ldikim, nogoh unutti.

Ne yo'lsiz keldi mendinkim, muningdek
Azaldin jon ila hamroh unutti.

Firoqingda manga tasbih bo'ldi
Bu so'z kim: «Oh, unutti, oh, unutti!»

Atoyi, xayma ur mulki adamda,
Chu sendin ul buti xirgoh unutti.

* * *

Ey begim, shahd-u shakar shirin so'zungnung bandasi,
Ohuyi Chin-u Xo'tan ikki ko'zing sharmandasi.

Ey malohat kishvarining xisravi g'am tog'ida
Bizni Farhod ayladi shirin dudoqing xandasi.

Jon yaqosin pora aylaykim, manga bermas ilik
Ul badandin pirahanning toleyi farxundasi.

Soyayi zulfung maning boshing'a bo'lsun mustadom
Kim, g'animattur kishiga umrinung poyandasi.

La'lingiz bersa Atoyining murodin jon olib,
El degaylar dunyada sizni aning jonandasi.

Har kimki boqdi ul ko'zi ayni balo sari,
Dardidin o'ldi, boqmadi bir dam davo sari.

Husnung zakoti, qil nazar, ey podshohi husn,
Ko'z uchidin o'tarda bu miskin gado sari.

Ne bo'lgay, ey jafochi, birarda nazar qilib,
Qilsang guzar mahallayi mehr-u vafo sari?

Farhodtek g'amini sabo hajar tog'ida
Borsang degaysen ul buti Shirin liqo sari.

Har tiri g'amki charxi falak shastidin chiqar,
Yozmay kelur hamisha men muftalo sari.

Zulfung g'aminda bo'ldi nishona qaro boshim,
Otqil xadanggi g'amzani ushbu qaro sari.

Og'zing g'aminda tortar Atoyini har nafas,
Yo'q qayg'u birla ahli adamdek fano sari.

Alo ey husni xulq-u lutf boyi,
Falak sultoni oy – yuzung gadoyi.

Sochingdur anbari jannat, ani men,
Xato qildim, dedim mushki Xitoyi.

Bu kun, sultoni mulk-u husn sen-sen,
Dalili davlat ush zulfung humoyi.

Xayoli holingizdin xoli ermas,
Zamone, bu ko'ngul xilvat saroyi.

Yuzungga bo'lg'ali qul banda yangliq
Muborakdur hamisha bayram oyi.

Men-u bir buriyov-u shishayi may,
Bor, ey zohid, sen-u zuhd-u riyoyi.

Yasat shamshodi navrasdin jinoza⁴⁸,
Bo'yung shavqinda jon bersa Atoyi.

* * *

Ey ko'zung saydi Xo'tan gulzorining ohulari,
Anbar-u mushk-u Xito – xol-u xating hindulari.

Ko'zlarimtek yoshini hasratda ummon ayladi
Rishtayi jon birla tizgan tishlaring injulari.

Gar boshi ko'kka yetar, oy bir habash quldur sanga,
Har kishi tuymas muning, ush yuzida bilgulari.

⁴⁸ Jinoza – tobut.

Mu'jizi Muso qoshinda bo'ldi Fir'avn ahlitek
Ko'zlaring onlinda Kashmir elining jodulari.

Gar saroyi jannat ul-Ma'voda maskan aylasang,
Sahnida jorub bo'lg'ay hurlar gesulari.

Pista-vu funduq taloshur o'xshamoq tor og'zinga,
Mag'zi yo'qluqdin erur yo'q nimada yorg'ulari.

Yig'latur qon yosh Atoyi ko'zlarin yuz noz ila
Bodayi gulgun icharda g'unchadek kulgulari.

* * *

Kel, ey dilbarki, bo'ston vaqti bo'ldi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo'ldi.

Qilay nola boqib guldek yuzungga,
Chu bulbullarg'a afg'on vaqti bo'ldi.

Gul-u bulbul bikin gulbunlar ichra,
Nishot-u ayshi pinhon vaqti bo'ldi.

O'qub gul baxtini majlisda har dam,
Bo'lub sarxush, gul afshon vaqti bo'ldi.

Turub mahbub olida muhibg'a,
Chu gul choki giribon vaqti bo'ldi.

Mug'anniylarg'a bulbullar bikin zor,
Hazonon nav'i ilhon vaqti bo'ldi.

Bu damkim gul qilur bulbulg'a altof,
Atoyig'a ham ehson vaqti bo'ldi.

* * *

Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?
Vey tishlari durr-u guharim, netti, ne bo'ldi?

Ko'nglum kuyarindin sanga men pand berurmen,
Ey marhami jon-u jigarim, netti, ne bo'ldi?

Sen bor ekan, o'zga kishiga nazar etsam,
Chiqsun bu mening diydalarim, netti, ne bo'ldi?

Gah javr ila o'ltur meni, gah noz ila, sendin,
Haqqoki, mening yo'q guzarim, netti, ne bo'ldi?

Ey lo'batl Shirin, seni Farhod mengizliq,
Olamg'a yoyildi sevarim, netti, ne bo'ldi?

Umrumni sening qullug'unga sarf qilibmen,
Ey o'z qulidin bexabarim, netti, ne bo'ldi?

Bir zarra suchuk so'zni Atoyidin ayarsen,
Ey lablari shahd-u shakarim, netti, ne bo'ldi?

Har kimki ko'nglin ul sochi purxamg'a bog'ladi,
Sargashta bo'ldi, jonini ham g'amg'a bog'ladi.

La'li havosidurki o'lukni tirik qilur,
Tarso bu so'zni Iysoyi Maryamga bog'ladi.

Hayratqa qoldi aqlkim, ul sho'x sehr etib,
Oldi kamarni yo'q nimadin kumg'a bog'ladi.

Xurshid chashmasi qoshida sabzayi xizirtek,
Ey bilmasun deb o'zini Zamzamg'a bog'ladi.

Anqodurur jahonda vafo, bulbuli faqir,
Bilmay ko'ngulni guli xurramg'a bog'ladi.

Yer, ko'k tahammul aylamagan ishq amonatin
Joni hazini xastayi odamg'a bog'ladi.

Bo'ldi Atoyi so'zi jahonning musallami,
To ko'nglin ul jamoli musallamg'a bog'ladi.

Yuzungdin gar yiroq solsam nazarni,
Netarmen ko'zda bu nuri basarni?

Labingni qanda ko'rmishkim, uyottin
Yoshurdi band ichinda nayshakarni.

Seni xurshed o'qug'ondin ajabtur
Ki, sulton birla teng der darbadarni.

G'arib erur gadoni so'rmoq, ey shoh,
So'rarlar jumla olam mo'tabarni.

Bo'yun sunsam g'amingg'a ayb emaskim,
Zabun aylar muhabbat sheri narni.

Raqib-u zohid ohimdin kuyarlar,
Bale, o't qo'ydurur har xushk-u tarni.

Atoyi sevdi jondin qomatingni,
Sevar Haq biym⁴⁹ yo'lida rostlarni.

* * *

Jamolingdur bu xasta jon umidi
Ki, guldur bulbul-u bo'ston umidi.

Gahi marjon to'kar, gah durri maknun,
Ko'zumdin ul lab-u dandon umidi.

Sochar yulduz bikin tunlar yuzumda
Yoshimni ul iki cho'lpon umidi.

⁴⁹ Biym – qo'rquv, qo'rqinch, xavf etuv.

Meni sargashta qildi go'y yanglig'
Xami zulfungdag'i chavgon umidi.

Inoyat qilki, bordur bu gadoning
Boshinda xidmati sulton umidi.

Bu qul yuz qatla g'amdin o'lgay erdi,
Beginidin bo'lmasa ehson umidi.

Atoyi dardig'a, ey jon tabibi,
Visolingdin erur darmon umidi.

Ko'nglumni olg'ali zulfung kamandi,
Parishon bo'ldi g'amdin band-bandi.

Necha daf'i xumor etmas ko'zungkim,
Labi la'lingdadur Majnun qandi.

Muloyimdur bo'yung madhin o'qurda
Maqomi «rost», ohangi balandi.

Manga darmon hamin bas, buki, derlar,
Saningdek marhami jon dardmandi.

Ne nisbat sarvg'a qadding bilankim?
Erur ul bog'bonlarning lavandi.

Angakim ishq holi bo'ldi g'olib,
Asar qilmas nasihatgo'y pandi.

Atoyi she'rining lutfini bilsa,
«Latofatnoma»din kechgay Xo'jandiy.

* * *

Garchi qobil ko'rmading, jono, visolingg'a meni,
Qil suforish bore rahm aylab xayolingg'a meni.

Gunbadi charxi falak qandilini yondurg'uchi,
Ayladi parvonayi sham'i jamolingg'a meni.

Loyiq ermas erdi dom-u dong'a ko'nglum qushi,
Ko'zlaring sayd ettilartek zulf-u xolingg'a meni.

Mevayi behbudluq ko'rmay visoling boridin
Nor yangoqing soldi so'nmas o't-u yolingg'a meni.

Va'dag'a qilg'um vafo deguncha yolg'on so'z bila
Bir yo'li butgil degil amri maholingg'a meni.

Ey malohatgo'y, man sargashtadurmen zulfidin,
Bilmayin qilma qiyos osuda holingg'a meni.

Der Atoyi ul husng'akim, quyar bol irniga,
Joni shirining'a yetkur, bog'la bolingg'a meni.

G'amdin o'rtandi ko'ngul, aylamassan shod ani,
Ganji ishqingdur buzuldi, qilmading obod ani.

Rostliqa boqsa qading, ishqida bo'ston aro
Sarv bir to'g'ri qulungdur, tik der el ozodni.

Asru ko'p ichti magar husnung mayin usruk ko'zung,
Uyg'ata olmas bu muncha nola-vu faryod ani.

Shevada qoshing, ko'zung shogirdidur, bilmon, nega
Yuqori o'lturatur o'zindin o'shal ustodni.

Bo'ldi qoshingdin judo yoytak Atoyining bo'yi,
Yo sen o'q, o'ltur o'zung, yo qil birorda yod ani.

Andakim katmi⁵⁰ adamdin qildi Haq paydo meni,
Zarratek og'zing xayoli ayladi shaydo meni.

Yong'amen sham'i jamoling olida parvonatek,
Yonmag'aymen har nechakim, qilmasang parvo meni.

Har nafas jonim olur ul ikki jodu sehr etib,
Tirguzur har dam-badam bu la'li ruhafzo meni.

⁵⁰ Katm – yashirin, yashirinlik, parda; katmi adam –yo'qlik pardasi.



Saqladim sirringni yillar jon-u ko'nglumda, vale
Ko'z yoshim ohim bila qildi bu kun rasvo meni.

Ey soching kufr-u, yuzung iymon, firoqingda menga
Rahm qilg'ay ko'rsa gabr-u kofir-u tarso meni.

Qosh yosindin ko'zung har bir xadangikim otar,
Yo nishon aylar bag'irni, yo yurakni, yo meni.

Ey Atoyi, bu xayoli xomdur sandin desang
Kim, dame yod etgay ul siymin badan ra'no meni.

MUNDARIJA

«Eyki xo‘blar ko‘zgusinda...».....	5
«O‘lturur erdi meni hijron...».....	6
«Jamoling vasfini qildim chamanda...».....	7
«Qon bo‘ldi ko‘ngul firoqi birla...».....	7
«Ko‘zungtek fitna yo‘q davri qamarda...».....	8
«Gardundin o‘tar nolayi zorim kechalarda...».....	9
«Umidi vasldur poband bizga...».....	10
«Ey begim, valloh, kerakmas tanda jon...»	11
«Ey sohibi fan, ishva bila noz fanida...»	12
«Hosili umrim tugandi hasrat-u qayg‘u bila...»	12
«Ko‘zumki, sevdi yuzungni chin e‘tiqodi bila...».....	13
«Ne jonsen, ey pari ruxsora mahbub?...»	13
«Ko‘zung xayolida yo‘qtur balodin...».....	14
«Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga...»	15
«Ey mus’hafi husnungg‘a menging...».....	16
«Har necha bo‘lsa yorda kibr-u...».....	16
«Ey musalsal zulfidin jonimda yuz...».....	17
«O‘shal kunkim huvaydo bo‘ldi arvoh...».....	18
«Ey soching sha’ninda nozil...»	19
«Dilbaro, la’ling mayidur obi ...»	19
«Odamni adamdinki Xudoy ayladi...»	20
«O‘shal soni’ki, sun’idin tajallii jamol aylar...».....	21
«Ulki derlar jumlayi olamda g‘olib husn erur...».....	22
«Yuzungdin ravzayi rizvon bo‘lubtur...»	23
«O‘tarda ko‘z uchidinkim biror ...»	24
«Dilbaro, kelgilki, shavqungdin ...»	24
«Yuzung to pardadin zohir bo‘lubtur...»	25
«Ey ko‘zi jayron, qaro kirpuklari sayyodlar...»	26

«Jon ulvini adamdin chunki hosil qildilar...»	27
«Bu husn-u malohatki bizing yorda bordur...»	28
«Jonimg'a dog' qo'yguchi ul yuzda xoldur...».....	28
«Jamoling ravzayi bog'i jinondur...»	29
«Xoli mushkinkim o'shul yuz – mohi ...»	30
«Mushkin xatiki chashmayi hayvon ...»	30
«Tubiyi jannatki derlar qomat-u bolosidur...».....	31
«Ey begim, ushbu yuz, degul, ...»	32
«Bu elda bordur ikki moh paykar, ...»	32
«Yuzungni qiblayi ahhob derlar, ...»	33
«Necha jonimg'a sendin dard-u g'amdur?!...».....	34
«Meni devona qilg'on bir paridur ...»	35
«Ko'zung davri qamar ayyorasidur, ...».....	36
«Xidmatingda bilmon, ey dildor, ...»	37
«Oshiq kishining xotiri g'amnok keraktur, ...».....	37
«Dilbar firoqi garchi azobi alim erur, ...»	38
«Seni bir qomati shamshod o'qurlar, ...»	39
«So'zlasa, og'zindin shakar ko'runur, ...»	40
«Yangog'ung ravzanung jannat gulidur, ...»	40
«Ul sanamkim suv yaqosinda ...»	41
«Soching yaldo tuni, anling sahardur, ...»	42
«Seni husn ichra oydin pok derlar, ...»	42
«Marhabo ul jonkim, aning sen ...»	43
«Yoz faslidur, vale men yorsiz, ...»	44
«Oldi ko'nglumni maning bir dirlabo, ... ».....	45
«Ey azaldin dardi ishqing birla ...»	46
«Sizingtek hurvash odam topilmas, ...»	46
«Manga, sen bo'lmasang, jon hojat ermas, ...»	47
«Ul yuzi gulkim bu qulni – yil kechar ...»	48
«Jon qolmadi g'amdin, ...»	49
«Dilbaro la'ling sharobi obi Kavsardin latif, ...».....	50
«Ey podshohi kishvari husn-u jahon lutf, ...»	50
«Xurshedi xovarida yuzungdek jamol yo'q...»	51

«Ey do'st, mening dunyoda sentek ...»	52
«Oh, o'lturdi firoq, ul gul uzorimdin yiroq, ...»	53
«Bo'yung sarvi ravondur – jong'a loyiq, ...»	53
«Yuzung xurshid-u anling subhi sodiq, ... »	54
«Saningtek husn ila hur-u pari yo'q, ...»	55
«Kerakmas sensizin jon-u tiriklik, ...»	56
«Husn bog'inda yuzungdek vardi ...»	56
«Ey xayoling to abad hamroz-u ...»	57
«Ey begim, to bastayi zulfi ...»	58
«Yuzung sham'ina men parvonalardek, ...»	58
«Ey husn ichinda mulkati be ...»	59
«Ey bihishti jovidon, bir lahza...»	60
«Sevdi xo'blarni, ayirdi xonumonimdin...»	61
«Hajring g'aminda bo'ldi tanim pora,...»	62
«Andakim qildi tavaqqu' vasli...»	63
«Menglaring mushki Xo'tan yo nuqtayi...»	63
«Bir nazar ayla bizga, ey husn ila...»	64
«Alminnatu lillohki, yana yorni ko'rdum,...»	65
«Ayoqing tuprog'i birla qasamkim, ...»	65
«Desangkim: «Jon sipar qilg'il, Otoyim!»...»	66
«Xasta ko'nglumdin xayoling bir zamon...»	67
«To ko'ngulda orazing naqshin musavvar...»	67
«Ey base shaydo ko'ngullar qiblas...»	68
«Ey g'am-u darding saning payvasta...»	69
«Ne inoyatsiz manga, jononi taqsir ayladim,...»	70
«Qildim havas labing uza shirin nabottin,...»	70
«Soqiyo, keltur mayi gulgunki, xush...»	71
«Og'zingizkim qildi ihyo obi hayvon suratin,...»	72
«Sahar ohista g'amdin oh dermen,...»	73
«Barcha miskin-u faqir-u bekas-u...»	74
«Shammayi sharh aylasam tobug'da...»	75
«Qon bog'ladi la'ling havasindin jigar,...»	75
«Sensiz, ey labi chashmayi hayvon, ...»	76

«Ey ko'ngul, tutgil o'shal sohibnazarlar...»	77
«Uza bilmon ko'ngulni xo'blardin,...»	78
«Ko'zum to ko'rdi zulfining kamandin,...»	78
«Ey nuri diyda, sensiz anga nur bo'lmasun,...»	79
«Bo vujudi orazing bargi sumandin...»	80
«Nechaki tark eta bilmon sanga...»	81
«To musavvar bo'ldi naqshing...»	82
«Ey jamoling ravzasindin munfail...»	82
«Ey jafochi, men seni sevdumki, ...»	83
«Ey turfa parisen, ne ajab odamidursen?...»	84
«Nechakim dilbar meni kuydurdi...»	85
«Jonga tegadur jafoyi hijron,...»	85
«Yuzung xurshedtek tobanda bo'lsun,...»	86
«Ey pari paykar sanam, sen nasli...»	87
«Sipehri husn ichinda moh sen-sen,...»	88
«Ey g'aniy, husn-u jamoling birla taxt-u...»	89
«Agarchi husn ichinda dilrabosen,...»	89
«Ey bu ko'nglumning huzuri,...»	90
«Necha, ey dilbar, jafo bobin rioyat...»	91
«Seni men angladim, bevafo emishtuksen,...»	92
«Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?...»	92
«Manga javr aylar ul dilbar hamisha,...»	93
«So'zungdek shakkar, og'zingdin sutuda,...»	94
«Ayo sulton, malohat kishvarida,...»	95
«Jonim sadaqa ul ko'zi bemor sanamg'a,...»	95
«Aningkim sen bikin manzuri bo'lsa,...»	96
«Yo Rab, meni ul sarvi xiromondin ayirma,...»	97
«Labi la'ling uchun, ey ko'ngli xora,...»	98
«Yuzungdin rang olur nasrin-u lola,...»	98
«Sabo, agar guzar etsang habib hazratida,...»	99
«Kirding tushuma subhidam, ...»	100
«Yo Rab, ul orazmidur yo lola ar-ar ustina?...»	101
«Yuzungni ko'rdum, ey jon, shukri lilloh,...»	101

«Yoreki o'lturur meni hijron qironida,...».....	103
«Shaho, bizga nazar qilsang ne bo'ldi?...».....	103
«Hajringda g'am-u hasrat kuydurdi, ...».....	104
«Ey lolayi Firdavs yuzung birla mubohi,...».....	104
«Ko'ngul olding, begim, ...».....	105
«Xoni vaslingdin, nigoro,...».....	106
«To beniqob ko'rgali ul husn shohini...».....	106
«Ko'ngil visol ila ofatni ko'rmagantek edi,...».....	107
«Ey begim, sen qilmag'an jong'a...».....	108
«Bog'i bihisht ravzayi husnung...».....	110
«Ey begim, iyd o'ldi, kel bir lahza...».....	110
«Xazontek ayladi baxtim bu yil...».....	111
«Kuyar jonim, netay, dilxoh unutti,...».....	111
«Ey begim, shahd-u shakar shirin...».....	112
«Har kimki boqdi ul ko'zi ayni balo sari,...».....	113
«Alo ey husni xulq-u lutf boyi,...».....	113
«Ey ko'zung saydi Xo'tan...».....	114
«Kel, ey dilbarki, bo'ston vaqti bo'ldi,...».....	115
«Ey orazi shams-u qamarim, netti,...».....	116
«Har kimki ko'nglin ul sochi purxamg'a...».....	117
«Yuzungdin gar yiroq solsam nazarni,...».....	117
«Jamolingdur bu xasta jon umidi...».....	118
«Ko'nglumni olg'ali zulfung kamandi,...».....	119
«Garchi qobil ko'rmading, jono, ...».....	119
«G'amdin o'rtandi ko'ngul,...».....	121
«Andakim katmi adamdin qildi...».....	121

Adabiy-badiiy nashr

Shayxzoda ATOYI

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 84x108 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 4000 nusxa.

Buyurtma № 53

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.



ISBN 978-9943-6359-3-7



9 789943 635937

